

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha  
va maktab ta’limi Vazirligi

*Abdulla Oripov*  
nomidagi  
*Ijod maktabi*  
o‘quvchilarining ijodidan  
namunalari

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2024

**UO'K 373.5.014(575.1)**

**KBK 74.2(50')**

**B 81**

*Loyiha rahbari*

**Hilola Umarova**

**Boyqobilov, H.**

Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi / [Matn]: to'plam / H. Boyqobilov [va boshq. ]; muharrir Sulaymon Nazarov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 172 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat, ajdodlarimiz merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, zamonaviy, erkin fikrlaydigan hamda badiiy adabiyot va boshqa ijod sohasida jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor shaxsni shakllantirish maqsadida Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan.

**UO'K 373.5.014(575.1)**

**KBK 74.2(50')**

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2024

**ISBN 978-9910-9137-9-2**



Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi.

**Shavkat Mirziyoyev,**  
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



ABDULLA ORIPOV  
NOMIDAGI  
*ijod maktabi*

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning  
tashabbuslari bilan yosh avlodni  
vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga  
sadoqat, ajdodlarimiz merosiga  
vorislik ruhida tarbiyalash,  
zamonaviy, erkin fikrlaydigan hamda  
badiiy adabiyot va boshqa ijod  
sohalarida jahondagi tengdoshlari  
bilan raqobatlasha oladigan ijodkor  
shaxsni shakllantirish maqsadida  
Abdulla Oripov nomidagi ijod  
maktabi tashkil etilgan.



**Hikmatbek  
Boyqobilov**

9-sinf o'quvchisi

### **SHUKRONALIK**

Quyosh boychechakka doyalik qilib,  
Uni asta olar qorning bag'ridan.  
Boychechak boshini ko'tarar shodon  
Oppoq ko'rpasining issiq qa'ridan.

Bobomning qabargan barmoqlari ham  
Shundayin kunlarga aytar shukrona.  
Uning-da, bu yilni sog' ko'rgani-chun  
Yuzlarida quvonch o'tlari yonar.

**MUHAMMAD YUSUF SHE'RIGA NAZIRA**

*“Erka kiyik, maylimi bir erkalasam,  
Majnun bo‘lib sahrolarga yetalasam...”*

**Muhammad Yusuf**

Ikkimizga birday makon shu Karbalo,  
Bag‘ri keng dasht – ishq, ayriliq ungan sahro,  
Asli cho‘lga aylanibdi bu keng dunyo,  
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?..

Nayza kabi kipriklaring berar ozor,  
Ezgulikka sen ham zorsan va men ham zor,  
Bu dunyoning yolg‘onidan bo‘lib bezor,  
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?..

Sayyod o‘qi qilar seni har dam ta‘qib,  
Dushmanlaring ketar dilga armon taqib,  
Kelgin endi o‘shalarning ichin yoqib,  
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?..

## SHOIR QALBI

Quyosh asta qo‘yar ufqqa boshin,  
Uningsiz osmon ham tuyular mungli.  
Borliqda bir go‘zal tarovat hokim,  
Birdan titrab ketar shoirning ko‘ngli.

Mening ham yosh qalbim oshufta, sarmast,  
Go‘yoki uchaman bulutlar aro.  
Osmonga bo‘y cho‘zgan tog‘lar mendan past,  
Meni chorlaganda bag‘riga samo.

## TABIAT

Mavj urgan bog‘larning ustidan alvon  
Ranglarini chaplar rassom tabiat.  
Qonga cho‘milgandek ko‘rinar har yon  
Sodir bo‘lgan go‘yo mash‘um jinoyat.

Yashirinar qotil quyosh nurlari,  
Asta-sekin boshlar qidiruvni oy.  
Biroq uni topib bo‘lmaydi sira  
Quyosh iz qoldirmay ketgan, hoynahoy.

Haqiqatni hech ham anglamaydi u  
O‘rnini bo‘shatar yana quyoshga.  
U tag‘in bog‘larning bag‘rin to‘ldirar  
Alamli, olovli, qonli ko‘z yoshga.

Jabrdiyda kuz-chi, bosh egar mahzun,  
Ko‘rgani chog‘ mening dardli ko‘zimni.  
Tinmay she‘r o‘qiyman u chiqarmas un  
Mezonlarga osgim kelar so‘zimni.





**Javohir**  
**Abdurasulov**  
9-sinf o'quvchisi

### ONAMGA XAT

Onam, munisginam,  
Yuribsanmi sog'?!  
Yana xatlar yozib seni esladim.  
Sen meni deb xayol surgan ayni chog',  
Borliqdan timsoling rosa izladim.

Otam tashvishlarda sog' yuribdimi,  
Shunchalar og'irimi yelkada yuki?  
Oppoq qog'ozlarim, ayt, turibdimi,  
Sochlaringga qorlar qo'ngandir, balki.

Qo‘shni qiz ketgandir boshqasi bilan,  
Meni unutmang u allaqachon.  
G‘urur, orim ila ichaman qasam,  
Uzoqqa ketmayman endi, Onajon!

Seni ko‘p o‘yladim, mehring sog‘indim,  
Qalbmida noma‘lum tuyg‘ular yotar.  
Seni o‘ylaganda juda og‘rindim,  
Bo‘g‘zimga sog‘inchning xanjari botar.

Ona, onajonim, yuribsanmi sog‘?..

### **BAHOR NAFASI**

Ko‘ngillarning erkasi,  
Fasllarning bekasi,  
Yoqimlidir har sasi,  
Essa bahor nafasi.

Eriydi oppoq qorlar,  
Yuviladi g‘uborlar,  
To‘lib oqar anhorlar,  
Essa bahor nafasi.

Yuraklar baxtga to‘la,  
Gullar labida jola,  
Qizlar yuzida lola,  
Essa bahor nafasi.

Qishning zaxrini quvib,  
Borliq bag‘rin to‘ldirib,  
Kelar qushlar in qurib,  
Essa bahor nafasi.

Barcha baxtiyor bo‘lar,  
Shodon, xushruxsor bo‘lar,  
Quvonchdan o‘ynab-kular,  
Essa bahor nafasi.

## MAKTUB

Javobin olmadim so‘nggi maktubim,  
Daydi shamollar ham so‘rar visoling.  
Telba yuragimni ezganda hijron,  
Bir yo‘qlab qo‘ymading Majnuning holin.

Tunlari yolg‘izman, uyqusiz, bedor,  
Yodinga o‘rnashgan ming xil o‘y-xayol.  
Yodgor bo‘lib qoldi ilk muhabbatdan  
Sevgimizga guvoh – keksa majnuntol.

Menga hamroh bo‘lar qorong‘u xona,  
Pochtalyon kabutar kelar qon yutib.  
Ishqing kuylamoqqa shaydir qalamim,  
Hamon yashayapman maktubing kutib...





**Dilxush**  
**Abduqahhorov**  
9-sinf o'quvchisi

### **BAXTNING BAG'RIDA**

Aylanganda hayotning charxi,  
Yonib-kuydik sevgi dardida.  
Boshlanmayin ishqning tarixi,  
Joy qolmadi baxtning bag'rida.

Hayot go'yo yelkansiz kema,  
Yurak esa bezgan baridan.  
G'ururimiz birinchi, deya,  
Joy qolmadi baxtning bag'ridan.

## OTA

Siz – azim tog‘. Men – mag‘rur burgut,  
Uchib yurgan ko‘ksini kerib.  
Siz borsizki, armonim unut,  
G‘am-g‘ussalar ketadi erib.

Men lochinman shamoldan uchqur,  
Yiqilmayman hayot zarbidan.  
Qanot qoqsam ostimda bulut,  
Yuribman-da otam davrida.





**Gulsevar**  
**Umrzoqova**  
10-sinf o'quvchisi

### **ABDULLA ORIPOV XOTIRASIGA...**

Samo ko'zqusini yerga tutgan dam,  
Nazmiy gulistonda barq urdi ijod.  
Qo'ng'irtov bo'yida surgancha xayol,  
Uni shoir qilib yaratdi hayot.

So'zni ko'ngil bilan terdi qirlardan,  
Ko'zlarin qadagan tog'lar purviqor.  
Daryolar mavjiga mudom jo'r bo'ldi.  
"Vatanim manim" deb kuyladi ilk bor.

So‘z ila qayradi nazmiy shamshirin,  
Qalblarni zabt etdi she‘rlarin kuchi.  
Zarhal satrlarda dur kabi ma‘no,  
Yurt madhi yangradi ko‘klarni quchib.

She‘riyat osmonin bezagi bo‘lgan,  
Ul “Mitti yulduz”da baytlarin bitdi.  
Ishq vasfin ta‘riflab, ko‘klam chog‘ida  
Muhabbat poyiga guldasta tutdi.

Shonli kunlarini yodimga olib,  
Xotirlab yozganim shu bir parcha she‘r.  
Mangu tiriklikning bayoti bo‘lib,  
Qutlug‘ bir saharda ko‘z ochdi shoir.

**SHOIRAM**  
(*Zulfiyaxonimga*)

Saharlab ko‘z ochgan o‘rik shoxida,  
Ilk bahor ifori xushbo‘y taralar.  
Shamol belanchakka solib o‘ylarim,  
Shu onda yurakdan bir she‘r yaralar.

Kecha oqshom soʻlim qirgʻoq boʻyida,  
Sizni eslamogga ochgandim kitob.  
Nazmiy osmonlardan salobat toʻkib,  
Mayin boqardingiz goʻyoki mohtob.

Sizni eslasam gar maʼsum chehrangiz,  
Goʻyo qarogʻimda qalqiydi suzib.  
Jismingiz yoritgan mehr libosi,  
Dilimda muhabbat marjonin tizib.

Shon-shavkat togʻidan yiroqsiz butkul,  
Axir goʻzal qalbga bezak ne darkor?  
Ishq rangidan tomgan nafis sheʼrlarning,  
Har birin satrida zarhal izi bor.

Sheʼr zavqidan yonar oʻtli ilhomim,  
Ayting, qanday yopay bu ishq kitobin.  
Hatto bir sheʼrga ham sigʻdirolmadim  
Qalbinga siz solgan soʻnmas oftobni.

## TUN

Nega buncha uzunsan,  
Yoki behis, beunsan,  
Yechilmagan tugunsan,  
TUN.

Xayollar uchar ko'kka,  
Narvonsiz ular tikka,  
Da'vongmi buyuklikka,  
TUN.

To'lg'onib u yon, bu yon,  
Hislarim qildi isyon,  
Otsin tong. Bergin imkon,  
TUN.





**Madina  
Omonova**

9-sinf o'quvchisi

### **YANGRA MADHIYAM**

Madhiyam ovozi bilan uyg'onar,  
Maysalar qalbini eritgan quyosh.  
Hattoki tog'larning qizil lolasi,  
Nafis ohang bilan tebratadi bosh.

Madhiyam yangraydi baland – jarangdor,  
Otilib chiqadi yurakdan so'zlar.  
Unda ishonch bordir, unda faxr bor,  
Serquyosh o'lkamning baxtini ko'zlar.

Ey xalqim, kuylayver, kuyla baralla,  
Uning ovozidan titraydi yurak.

Tilarman, Vatanim, bo‘lsin deb har dam,  
Qadding ham, qadring ham uningdek yuksak.

### QUVLASHMACHOQ

Quvlashmashoq o‘ynadim  
Soat bilan bir kuni.  
U chopdi, men quvladim  
Tutolmadim hech uni.

Yetib olay, shoshmay yur,  
To‘xta, ozroq kutib tur.  
U dedi: “To‘xtolmayman,  
Men seni kutolmayman.

To‘xtasam zamin to‘xtar,  
Vaqt to‘xtar – zamon to‘xtar”.  
Shunday ekan, ildam chop,  
Harakat qil, kamol top.

Bekor vaqt – katta kulfat,  
Umr kutib turmaydi.  
Oltin teng har fursat,  
Aslo ortga yurmaydi.

## YOMG'IR

Atrofda ajoyib sukunat hokim,  
Osmon shivirlaydi yer qulog'iga.  
Eshitmasin deya ko'kdagi quyosh,  
Bulutlar yashirar keng quchog'iga.

## TO'RTLIK

Mag'rur qanot qoqsam she'r osmonida  
Ilhom parisiga kelib qolsam duch.  
So'zdan sehr topsam nazm bog'ida,  
Navoiy bobomdan olajakman kuch.

## ERKIN VOHIDOV XOTIRASIGA

Shoir vafotini eshitib nogoh,  
“Faust” ishonmaydi quloqlariga.  
“Buyuk hayot tongi” javob berolmas,  
“Aql va yurak”ning so'roqlariga.

“Orzu chashmasi”-yu “Quyosh maskani”,  
“Iztirob” chekadi, “Nido” chekadi.  
“Bedorlik” qiynaydi “Inson” ko'nglini,  
“Ruhlar isyoni”ga navbat tegadi.

“Mening yulduzim” ham bosh ko‘taradi,  
“Charog‘bon”, “Ko‘hinur” misoli sekin.  
“Qo‘shiqlarim sizga” deya “Lirika”,  
“She‘riyat”ga ta‘zim qiladi g‘amgin.

## QISH

Bir beg‘ubor malak kelmoqda shoshib,  
Shamollar chopishar undan-da ildam.  
Barchaga barobar rizqin ulashib,  
Oppoq qor yurtimga qo‘yganda qadam.

Tabiat husniga ojiz erur so‘z,  
Saxovatiga-chi aytamiz olqish.  
Archalar sochlarin o‘rmagani-chun  
Boshiga oq ro‘mol o‘rab qo‘ydi qish.





**Farid  
Shodimurodov**

8-sinf o'quvchisi

## **SO'Z TURKUMLARI OLAMIGA SAYOHAT**

Uyquga yo'l boshladi,  
Tushlikdagi yegulik.  
Bir tush ko'rdim ta'rifi,  
Bir ash'orga yetgulik.

Kim? Kim?  
Men – Shoh emishman,  
So'zlar saltanatida.  
Vazirlarim ham bormish,  
Bir safda naqd oltita.

Bosh vazirim – OT uchun,  
Shaxs va narsalar nomi.  
So‘l vazirim – SIFATning,  
“Qanday” ga to‘la jomi.

Qancha bo‘lsa, shuncha ko‘p,  
Tartibni sevadi SON.  
Holatini tushunmay,  
RAVISH unga xo‘b hayron.

Ish-harakatga mas‘ul,  
FE‘L vazirim sal ayyor.  
Ot, sifat, son, ravishning  
Xizmatiga u tayyor.

OLMOSH vazir – olg‘irim,  
Bilar og‘ir-yengilim.  
Goh men, deydi, gohi biz,  
Goh U, bo‘lar, gohi Siz.

Yumush aytishim hamon,  
Darrov olib o‘rtaga.  
Muhokama boshlashar,  
Nima, qachon, qanchaga?..

Vazirlarim nogahon,  
Tang qolsa soʻz demakka.  
Koʻmakchi – yordamchilar,  
Kelar tezda koʻmakka!..

O, bunday saltanatni  
Koʻrmaganman hushimda.  
Xoʻb ahil aʻyonlarga  
Podshohmishman tushimda!..

### **CHORLOV**

Eh, ilhom kelmayapti,  
Koʻzga kelsa-da uyqu.  
Nimadir yozgim kelar,  
Bilolmayman, nima u?

Ilhom!  
Tez kel, mushtoqman senga,  
Koʻnglim eshigi ochiq.  
Ilhomsiz qayda bor joy,  
Sensiz yuragim sanchiq.



**Sevinch  
Nuriddinova**

**8-sinf o'quvchisi**

### **YOMG'IR**

Tashqarida kir yuvar yosh qiz,  
Olam aro shovqin ko'tarib.  
Siz u qizni yaxshi taniysiz,  
Yurar moviy lagan ko'tarib.

Erinmayin yuvmoqda, qarang,  
Daraxtlarning har bir yaprog'in.  
Yerga tushgach shunchaki loymas,  
Tavof qilar yurtim tuprog'in.

Yong'ir, tinib qolma bir nafas,  
Ko'z yoshimdan bergaydirman suv.  
O'tinaman, sendan iltimos,  
Kir va iflos yuraklarni yuv!

Tashqarida kir yuvar yosh qiz,  
Olam aro shovqin ko'tarib.  
Siz u qizni yaxshi taniysiz,  
Yurar moviy lagan ko'tarib.

### ANGLASH

Men yugurdim, kimdandir qochdim,  
Kimdir meni qilardi ta'qib.  
Hatto yorqin kumushrang oy ham,  
Olgandi o'z niqobin taqib.

Osmondagi mitti yulduzga,  
Yerdan turib tashladim nigoh,  
Zulmat aro qolgan qalbimga,  
Yorit deya so'radim panoj.

Qalbidagi qo'rquvlarimdan,  
Bo'lgim kelar butunlay xalos.

Ortga nazar tashlamoq uchun,  
Jasoratim yetmaydi, xolos.

Men ortimga qarashga qo‘rqdim,  
Yugurardim tinmay betinim.  
Bilmas edim, anglolmas edim,  
Qiziq, meni quvlayapti kim?!

O‘zim chetga tortgan ekanman,  
Yuksakdagi baland qoyadan.  
Umrim bo‘yi qochib yashabman,  
Menga hamroh bo‘lgan soyadan.

### **BERILMAGAN SAVOL**

Xayol ummonida uchib yurgancha,  
Shoir she‘r yozmoqda, she‘r yozar jo‘shib.  
She‘rning har bir satri, har bir bandiga,  
Qalbidagi sog‘inch, olovni qo‘shib.

“Shamol kokilingni tarab o‘ynaydi,  
Oftobning nurlari tillarang tolang.  
Maysalar shitirlab ishqing so‘ylaydi,  
Bag‘rimni tirnaydi mahzun bu nolang.

Kelar yo‘llaringga bo‘lib intizor,  
Yulduzlar ohidan kuy taraladi.  
Isming yuragingga nurday quyilar,  
Sog‘inchning taftidan she‘r yaraladi”.

Mana she‘r ham bitdi, bitdi nihoyat,  
Shoir qo‘li bilan qurdi bir bino.  
U oddiy quruvchi, usta-ku axir,  
Bu ash‘or kim uchun qilingan bino?!

“Shoir” ushbu she‘rni bitirgunicha,  
Bir go‘zal malakni o‘yladi mudom.  
U ham meni mendek sevarmikan deb,  
Kunlar o‘z-o‘ziga so‘yladi mudom.

Hayotda u kabi “shoirlar” bisyor,  
Bog‘ aro o‘zgalar uchun gul terar.  
Men uni sevaman, sevarmikan u,  
Degan savollarni o‘ziga berar.

Do‘stlarim, iltimos rostini ayting,  
O‘zga uchun gullar termadingizmi?!  
Bir bor Yaratgan sevarmikan deb,  
O‘zingizga savol bermadingizmi?!

## **BAHOR TASHRIFI**

Mo'jaz qishloq chetida,  
Odamlardan narida.  
Yashnab turar lolazor,  
Vodiylarning bag'rida.

Shudring yuvgan maysalar,  
Jilvalanib yaltirar.  
Shamol mayin essa ham,  
Yosh nihollar qaltirar.

Oftoboy ham uyquda,  
Erinib uyg'onadi.  
Uning qaynoq taftidan,  
Qir-dalalar yonadi.

Lolaning yanoqlari,  
Alvon rangga bo'yalgan.  
Ta'zim qilar quyoshga,  
Balki undan uyalgan.

Chalinadi quloqqa,  
Qushlarning sho'x suhbatlari.

Ko‘z oldimda namoyon,  
Jonli “bahor surati”.

## **SOG‘INCH**

“Seni sog‘insalar  
Sen ko‘p sog‘inding...”  
Xoh qadrdon bo‘lsin, xoh u bo‘lsin yot.  
Kutding kechalari o‘rtandi qalbing,  
Nahot sog‘inishdan iborat hayot.

Shamol kokilingni tarab o‘ynaydi,  
Oftobning nurlari tillarang tolang.  
Maysalar shitirlab, ishqing so‘yaydi,  
Bag‘rimni tirnaydi mahzun kuy, nolang.

Kelar yo‘llaringga bo‘lib intizor,  
Yulduzlar ohidan kuy taraladi.  
Isming yuragimga nurday quyilar,  
Sog‘inchning taftidan she‘r yaraladi.

## QISH

Yaltiraydi kumush qor,  
Ko‘zimga oyna tutib.  
Muzlab yotibdi anhor,  
Oqmoqlikni unutib.

Qalblarda orzu to‘la,  
Barcha shodon, baxtiyor.  
Bolalarning ko‘zida  
Yangi yil shukuhi bor.

Archa o‘yinchog‘ida,  
Yorqin bir nur porlaydi.  
Jilo bor har chiroqda,  
Davra sari chorlaydi.

Yaltiroq qor parchasi,  
Yulduz sochar borliqqa.  
Bunda hech qanday poklik,  
Teng kelmas bu yorliqqa.

## SHABADA

Qishloq aro esar shabada  
Atrof go‘yo mungli nafasda.

Daraxtlar ham shivirlar asta  
Oqar suv ham nedandir xasta.

Sargʻish rangga kirar daraxtlar  
Gʻam-gʻussa-yu achchiq qaygʻular.  
Saxovatli kuz kirib kelar  
Mehr ila qoʻshigʻin kuylab.

Shom boʻlganda olovdur daryo,  
Quyosh aksi tushadi suvga.  
Yuksakda tiniq, moviy samo  
Mehr ila qaraydi unga.

Suv negadir koʻrinar loyqa,  
Oqaverar tinim bilmasdan.  
Oʻynar vaqtdan oʻtmoqqa poyga  
Toʻxtamasdan, aslo tinmasdan.

Koʻk yuzida suzar bulutlar  
Ular koʻzga koʻrinar xira  
Savollarga toʻla xayollar,  
Bizga tinchlik bermaydi sira.



**Dilshod  
Mamatov**

8-sinf o'quvchisi

### **QISHNING SO'NGGI KUNLARI...**

O'tishin kutamiz layl-u nahorning,  
Har soatda kelar isi bahorning,  
Qizg'aldoqlar gullar, izi yo'q qorning,  
O'tar sovuq qishning so'nggi kunlari!

Bobotog'da gullar lolaqizg'aldoq,  
Qora bulutlar yo'q, hammasi oppoq,  
Bu ajib kunlarda o'ynaymiz quvnoq,  
O'tar sovuq qishning so'nggi kunlari!

Alpomishning yurti yam-yashil Boysun,  
Chuchmomalar sariq, go'yo xazoyin.

Ko'ksomsa pishirar men uchun oyim,  
O'tar sovuq qishning so'nggi kunlari!

Ayollar zud, sa'y qilar sumalakka,  
Yoyib sumalakning isin falakka.  
Popishaklar jo'shqin sayrar terakda,  
O'tar sovuq qishning so'nggi kunlari!

### **BAHORNI SOG'INIB...**

Kichkina bolakay ketmoqda,  
Ortiga ukasin opichib.  
Sovqotgan qo'llarin yengiga,  
Qariqiz –buldurug'in yopishib.

Ukasin qo'lida do'ppisi,  
Ichida qip-qizil, ko'k yalpiz.  
Go'yoki, navbahor kelmoqda,  
O'lkamga taratib shirin is.

Yo'lovchi, shoshmagin, bir nafas,  
O'pib qo'y, bolani to'xtatib.  
Axir u hammadan ilgari,  
Topibdi bahorni axtarib.



**Farangiz  
Hayitova**

10-sinf o'quvchisi

### ONA TILIM

Millatim sening-la doim barqaror,  
El-yurtning ham dardi, ham shodligisan.  
Mehnatkash xalqimning bo'ynida tumor,  
Qalbida yog'dusi, o'zbek tilisan.

Seni ham toptashdi qaysi bir zamon,  
Qadring topilmadi, qolmadi imkon.  
Shoirlar zir titrar, chekib nolon,  
To'kilgan muqaddas qonimsan, tilim.

Zabonim bezatding so'zlaring bilan,  
Seni ta'riflashga ojizdir tilim.

Go‘dak yig‘isida jajji nola-yu,  
Ona allasida madorim tilim.

Mangu barhayot tur, bo‘l doim omon,  
Endi har dam tinchsan, sen xazina, kon.  
Aslo buzilmagay mustahkam qo‘rg‘on,  
Qadring baland bo‘lsin, ey Ona tilim!

### NAVOIYGA EHTIROM

Mangulik satrini ko‘ngilga joylab,  
Nafis majlislarga jo bo‘ladi dil.  
Har baytin qatidan gavharlar izlab,  
Xazina topadi nur ila ko‘ngil.

Ulug‘lik madhining eng yuksagida,  
Sizning nomingizga bitilar ash‘or.  
Ezgulik daraxtin mevasi kabi  
Sadoqat talpinib aytadi izhor.

Nazm durlarini sochganda elga  
Hatto shamollar ham tebranadi lol.

Dengizlar mavj urar nafis ohangda,  
Besh asr nariga eltadi xayol.

Jilg'alar yig'ilib bo'ldi bir ummon,  
Nazm bo'stonida me'mor Navoiy.  
Ko'ngil minbaridan joy olgan urfon,  
Qadim va navqiron ash'or Navoiy!

### O'TINCH

“Bas! Tarqaling, og'ir xayollar,  
Yer yuzida yashnadi ko'klam”.  
Qalbdan chiqqan faryodlarim ko'p,  
Boshqa qaytib kelmasin alam.

Endi menga yo'llar ham ravon,  
Faqat undan yurishim kerak.  
Atrofimda umid gullasin,  
Shodlik birla ushalsin tilak.

Yorug'likka dildan intilib,  
Qayg'ularni yengib o'taman.  
Tun cho'kadi kelar bir kun tong,  
Hattoki bir umr kutaman.

Baxt ovozi eshitilganda,  
G'am-anduhlar, asta tark eting.  
Ko'zyoshlarim quvonchdan oqsin,  
Qo'llaringa guldasta tuting.

“Bas! Tarqaling, og‘ir xayollar”...





**Malika  
O'roqova**

8-sinf o'quvchisi

### **HOVLIMIZDA BAHOR**

Sernoz daraxt taqadi,  
Erinmayin chechaklar.  
Quyosh zimdan boqadi,  
Jilmaysa boychechaklar.

Tandirin yoqar onam,  
Xamirini ko'pchitib.  
Ukam varrak uchirar,  
Kabutarni cho'chitib.

Onam yopgan nonlarni,  
Akam ko'tarib chopar.

Qulogʻining chetiga  
Buvim rayhonlar taqar.

Dadam ketar bogʻ sari,  
Ergashtirib singlimni.  
Qaldirgʻ ochlar chugʻurlar,  
Xushlagancha koʻnglimni.

Ariq boʻyidagi tol,  
Sochlarini taraydi.  
Soʻraganday boʻlib hol,  
Gullar kulib qaraydi.

Goʻzallikka koʻz toʻymas,  
Yetdik shunday imkonga.  
Uch oyga ruxsat olib,  
Bahor kelgan mehmonga.

### **IFTIXORIMSAN**

Boshingda oy tumoring,  
Savlat toʻkar Humoying.  
Shavkatimsan, shonimsan,  
Gerbim iftixorimsan.

Bir tomoni oq oltin,  
Biri-chi, sariq oltin.  
Gulchambari yarashgan,  
Gerbim iftixorimsan.

Yashil qir-adirlaring,  
Toshqin suv daryolaring.  
Ta'riflashga til ojiz,  
Gerbim iftixorimsan.

## FASLLAR

Yoz ham keldi yugurib,  
Shlyapasin ko'tarib.  
Muzqaymog'in xo'p yalab,  
Bahor qoldi yo'talib.  
Qumloq sohil qumida,  
Kuz yotadi tovlanib.  
Muzlatkichda qish yotar,  
Bor narsani muzlatib.

## **BOLAJON**

Egnimizda ko‘k nimcha,  
Isiymiz kun taftidan.  
Hatto futbol yoqmaydi,  
Charchabmiz-da, aftidan.

Qo‘shiq aytish maloldir,  
Chorlar bizni “soyajon”.  
Ketdik, birga boramiz,  
Muzqaymoqqa, bolajon.

## **LOLA**

Lolazorga tushganda xayol,  
Tebrangancha omad tilaydi.  
Jilmaygancha chiqiboq quyosh,  
Lolalarning boshin silaydi.

Erkalangan bola singari,  
Mehr nurin izin quvadi.  
Barglarida tovlanib turgan,  
Shudringlarga yuzin yuvadi.

Kun taftidan eriboq qalbi,  
Qarag‘aylar siltashadi bosh.  
Ikki yuzi loladek bo‘lib,  
Ko‘k yuzida jilmayar quyosh.

### **BAHORDAN CHIROYLISIZ**

*Baxting bolish boshingda,  
Oy uxlaydi qoshingda.  
“Osmonlarda yurgan qiz,  
O‘n sakkizga kirgan qiz”.*

**Muhammd Yusuf**

O‘sma qo‘ysangiz qoshga,  
Savdo tushar boshingga.  
Muhammad ham sevgan qiz,  
“O‘n sakkizga kirgan qiz”.  
Sochlarin mayda o‘rib,  
O‘ziga oro berib.  
Buncha ham chiroylisiz,  
“O‘n sakkizga kirgan qiz”.  
Bahor og‘zi ochilib,  
Qo‘lda guli sochilib.  
Bahordan chiroylisiz,  
“O‘n sakkizga kirgan qiz”.

## QISH QAHR

(*Hikoya*)

Bu yil qish juda qattiq keldi. Kunlar sovuq. Xuddi muz asriga tushib qolgandek tinmay qor yog‘yapti. Uylarni isitish qiyinlashdi. Mana, bugun oxirgi o‘tinimizni yoqyapmiz. Yozi bilan yig‘gan-terganimiz o‘n besh kun uyni isi tishga yetdi, xolos. Bizdan 4-5 uy nariroqda yashaydigan qo‘shnimizning sigiri shunday sovuqda muzlab o‘lib qolibdi. Go‘шти zoye bo‘lmasin deb, bizga ham bergan edi. Onam harom o‘lgan molning go‘шти yeyilmaydi, deb itga berdi. Qorin och, odam nima yeyishni ham bilmay turibdi. Dadam: “Yerto‘ladan onang yozda yopgan tuzlamalardan olib chiq”, – deb aytdilar. Men yerto‘laga tushganimda yomon voqeani ko‘rdim. Qo‘limda yoritgich; pastga tushib borarkanman, to‘g‘rimda bir narsa “paq” etganday bo‘ldi. Go‘yo yuragim yorilganday bo‘lib, yoritgichni ovoz kelgan tarafga tutib qaragam, ahvol cha-toq. Bu qahraton sovuqdan barcha tuzlamalar-u, sharbatlarning idishi yorilib yotibdi. Bu holatni ko‘rib, alamimdan yig‘lab yubordim.

Yig‘laganimni ko‘rsatmaslik uchun o‘sha yerda uzoq qolib ketdim. Yerto‘la eshigi oldida chiqishimni kutib turgan otam nega chiqmayotganimni so‘rab xavotirlanib qoldilar. Tishimni tishimga bosib, tashqariga chiqdim va bo‘lgan voqeani otamga aytdim. Otam og‘ir o‘yga cho‘mdilar. Sal narida bizlarni intiqlik bilan kutib turgan onamning kapalagi uchib, yig‘laguday bo‘lib, yugurib yerto‘laga tushdilar. Ichkaridagi ayanchli holatni ko‘rib, aqldan ozay dedilar. Nailoj! Qo‘limizdan yig‘lashdan boshqa hech nima kelmaydi. Agar bizgacha ham gaz yetib kelganda edi, bu ko‘rgiliklar bo‘lmasdi. Mahalla oqsoqoli faollar bilan birga hokimiyatga murojaat qilishganlarida har doimgidek bir xil gap. Nima emish, “Sizgacha gaz ta‘minoti yetib borishiga gap ko‘p. Undan ko‘ra odatdagidek qishdan qanday sog‘-omon chiqqan bo‘lsangizlar, yana shunday yashayveringizlar”, deyishibdi. Oxirgi marta borishganida sababini so‘rashibdi. Ularning aytishi-cha, aholining gazdan noqonuniy va besamar foydalanganligi tufayli ekan. Agar o‘sha kishilar

davlatga tegishli boʻlgan gazni tejab, samarali ishlatganlarida edi, bizning qishloqdagilar shunchalik azob chekishmasdi. Ularga aytgan bilan, koyigan bilan foydasi yoʻq. Chunki ular bu yerdagi azob-uqubatni koʻrmaydi va bilmaydi. Ha mayli, zora ularga ham insof kirib, kelasi qishgacha bu yerdagilar ham yayrab qolsa.

### **UMMON ICHRA GAVHAR, DUR...**

*(Badia)*

Dars boshlandi. Oʻqituvchi oʻquvchilardan Alisher Navoiy haqida fikr bildirishlarini soʻradi. Temurjon Navoiyni “buyuk soʻz sultoni”, – dedi. Lola esa uni “bitmas-tuganmas xazina” deb atadi. Nodira osmondagi nur sochuvchi yulduzlarga mengzadi. Buyuk shoirga ehtirom sifatida keltirilgan taʼriflar shu qadar koʻpayib ketdiki, oʻquvchilar parta boshidan javob keltirganlari uchunmi, hamma gaplar aytib boʻlingandek edi, nazarimda. Shunda birdan xayolimga tinch va osuda, salobatli, toʻlqinlari mayin jimirlab turgan ummon gavdalandi. “Navoiy – ummon”, – ded-

im birdan hayajonlanib. Ustozimga gapim yoqdi, shekilli, fikrimda davom etishimni istagandek ma'noli qaradi. Shu damda o'zimni go'yoki ummon ichida his qildim.

Navoiy Ummoni! U yerda ko'zni quvnatguvchi cheksiz xazina yotibdi. Undagi qimmatbaho injular, dur-u gavharlar xayolimni tortdi. "Ustoz, undagi xazina tugab qolsa-chi", – deyman, hayratimni yashirmasdan. Sen aslo xavotirlanma, barchaga yetadi, – dedilar ustozim miyig'ida kulib, bu xazina olgan sari ko'payadi. Ustozimning bu so'zlaridan taskin topgan ko'nglim o'z jomini Ummonga tutadi. Qatragina olib sipqoraman. Haqiqatan ham, tiriklik suvi! Shunday kezda shu suvdan bebahra qolayotganlarga achinaman.

Chindan ham, Navoiy – butun olam shoiri, koinot osmonidagi porloq yulduz, buyuklik cho'qqisidagi so'nmas quyosh, olam ahlining ma'naviy chanqog'ini qondirguvchi zilol suvli buloq. U she'riyat sohibqironi!

Navoiyning g'azal-u dostonlari qalbmni butunlay rom etib, muhabbatimni oshirdi. Go'zal va

betakror misralari horg'inlik ingan tanamga jon bo'lib inganday bo'ldi.

Ummon tubiga so'zsiz sho'ng'iyman. Mana, katta ganjina topdim – “XAMSA”! Ushbu nodir namunani o'qir ekanman, do'stlarimning barcha ta'riflari rost ekanligiga iymon keltiraman. “Hayrat ul-abror”! Men uni o'qib chiqdim! Yaxshi kishilarni hayratlantirgan bu gavhar mening ham hayratimga hayrat qo'shdi. Uning ichidan inson odob-axloqi, yurish-turishi, muomalasi, iymon-e'tiqodi borasidagi ehtiyojlarning barchasi uchun juda zarur bo'lgan marjonlarni teraman.

“Hayrat ul-abror”dagi har bir hikoyat aziz insoningizning sizga aytmoqchi bo'lgan bir o'giti kabi qadrlil. Undagi hikmatlar sizga islom-u iymondan saboq beradi. Ular sizni go'yoki Ayyubdek to'g'ri yo'lga boshlaydiki, siz undagi o'g'ri misol qilmishlaringizdan xijolat tortasiz. Bu esa barcha xatolaringizni tuzatish imkonini hadya etadi. Ayniqsa, Xuroson ta'rifi keltirilgan saboqlar sizni Vatanni arzirli muhabbat bilan sevishga chorlaydi. Yana kim uning yanglig': “...Sening tog'laring oldida falak ham sodda dasht kabi-dir”, – deya oladi.

Ota-onamizni birdek yaxshi ko‘rib, qadrlashga undashi-chi!

Boshni fido ayla ato boshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.  
Tun-kuningga aylagali nur posh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Navoiy – eng buyuk qalb sohibi sifatida tanilganki, uning saxovati oldida Hotami Toyi ham lol.

Navoiy ijodining ohanrabosi menda she‘riy hayot uyg‘otdi. Uning barhayot gulshanidan butun umr gul termoq istagim bor!

Shu qadar jo‘shib so‘zlardimki, tengdoshlarim meni jon qulog‘i bilan tinglashardi. Hamma birdan qarsak chalib yubordi.

Menga olqish olib bergan Navoiy dahosiga ta‘zim!



**Guljahon  
Sadinova**

10-sinf o'quvchisi

### **SOG'INCH**

Dalalarni quchganda shamol,  
O'ylantirar ba'zida shu chog'.  
Suray deysiz ajib bir xayol,  
Tutgandayin yurakka quloq.

Jimjitlikka cho'kib shu zamon,  
Sog'inarsiz ba'zi damlarni.  
Chang ko'chalar, o'sha kulcha non,  
Onangiz-la o'tgan kunlarni.

Qaytay deysiz entikib, to'lib,  
Yana o'sha shirin kunlarga.

Hech narsani o‘ylamay, zinhor,  
Yana o‘sha sokin tunlarga.

Bolalikni yana axtarib,  
Sukut qilib qolasiz shunda.  
Afsus, uni yana qaytarib,  
Olib kelib bo‘lmas ekan-da.

Charchadingiz ko‘p tashvishlardan,  
O‘tar-ketar kunlar ham sekin.  
Shamol esa qirlarni kezar,  
Sog‘inchingiz qo‘zg‘atib, lekin.

## **RO‘MOLCHA**

*(Hikoya)*

Yana o‘g‘rilarning ishi o‘ngidan keldi.  
O‘g‘riboshi Ro‘zimurod otasi o‘tib qolgandan  
buyon shu yo‘l bilan tirikchilik qiladi.

Yaqinda ijaradan chiqib yangi uy olishadi.  
Sharofat xola o‘g‘lining bu hunarini haligacha  
bilmaydi. O‘g‘lim halol ishlab pul topyapti, deb  
sevinchi ichiga sig‘may yuradi boyaqish. Ro‘zi-  
murodning xayolida barcha yumushlarimni

bitirib olsam, uylangach, shu qilg‘imni tashlayman, degan o‘y yuradi.

Shu safar rosa omadlari kelib, o‘ziga yetar boynikiga o‘g‘rilikka tushishdi. O‘g‘irlangan pulni to‘rtovlon bo‘lib olishdi. Ro‘zimurodning og‘zi qulog‘ida... Qaytishda onasiga sovg‘a-salomlarga qo‘shib ro‘molcha oldi. Ro‘molchanning bir chetiga qiyaroq qilib “O‘g‘lingizdan” deb yozilgan yozuvi ham bor.

Darvoza taqillashi bilan Sharofat xola o‘g‘lining kelganini sezib darvozani ochdi. Ro‘zimurod qo‘lidagi ro‘molchani onasiga uzatdi. Ona o‘g‘li keltirgan ro‘molchani ko‘zlariga surtdi. Eri rahmatli juda qattiqqo‘l bo‘lganligi bois uning ko‘ngli bilan aslo hisoblashmasdi. Shu xonadonga kelin bo‘lib kelibdiki, umrida ilk bor tuhfa olayotgani uchunmi, beixtiyor ko‘zidan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Ro‘zimurod uyga kirib, ko‘rpachalar qatlami orasiga berkitib qo‘ygan quticha ichiga, bugun “ishlab” topgan 70 so‘mni uy sotib olish uchun yig‘ilayotgan pullari ichiga qo‘shib yashirib qo‘ydi.

Ertasi kuni tong sahardan apil-tapil choyini ichib bo‘lib hovliqib “ish”ga otlanmoqchi bo‘lib turgan paytda onasi o‘g‘liga uy ko‘rgani bormoqchiligini aytdi.

– Nasib etsa, chiroyli uy olamiz, bolam, – deya onasi uning izidan duo qilib qoldi.

Ro‘zimurod uydan chiqarkan, nihoyat o‘z uylari bo‘lishligini eslab, faxrlanib qo‘ydi. Yo‘l-yo‘lakay ishlarini bitirib bo‘ldi hamki, sheriklaridan darak bo‘lmadi. Anchadan so‘ng bugun tunashlari kerak bo‘lgan uy burilishida “qulfbuzar” do‘sti Qalqonga duch keldi. Qolgan sheriklari ham birpasda paydo bo‘lib qolishdi. Qalqon quvonchidan qichqirib yubordi:

– Omadimiz chopdi, Ro‘zi! Bugun sizlarga o‘zim bayram qilib beraman, og‘aynilar, – deb shodon qichqirdi u.

– Tinchlikni, do‘stim, bu deyman tilla topib oldingmi?!

– Toshloq yo‘ldan kelayotgandim, bir hamyonga ko‘zim tushdi. Ichini ochib qarasam, naqd 600 ming so‘m! Omadni qara, oshna!

Qalqon ularni bog‘ yonboshidagi choyxonada mehmon qildi. Gap orasida: Qalqon, og‘ayni, qani pullaringni chiqar-chi, – deya g‘udrandi Ro‘zimurod shirakayf holatda. Qalqon cho‘ntagidagi pullarni olib stol ustiga qo‘ydi. Ro‘zimurodning ko‘zi pullar orasida taxlog‘liq turgan ro‘molchaga tushdi. U ro‘molchanning bir chetida yozilgan “O‘g‘lingizdan” degan yozuvni qiynalib o‘qidi...





**Gulhayo  
Narzullayeva**  
8-sinf o'quvchisi

## **ESKI XOTIRALAR**

*(Hikoya)*

Urush avjiga chiqqan yillar edi. Bizlar – ota-onamdan opamga qolgan yodgorlarmiz. Dadam urushga ketdi va tez orada undan qora xat keldi. Onam esa og'ir xastalikdan vafot etdi. Oilada oltita qizimiz. Avvallari otam o'g'lim yo'q deb o'kinardi. Lekin urushga ketayotib, xayrlashuv oldi: “Yaxshiyam qiz ekansizlar” deya ko'ziga yosh olgandi.

Opam balog'atga yetgan – uyimizdan sovchilar arimasdi. Biz esa kichkina bo'lgani-

miz uchunmi, ularning nima uchun kelganini bilmadik. “Boshingda nur sochuvchi quyoshing bo‘lsa yaxshi-da”, – deya uyimizga sovchilar kelgani haqida bir kuni o‘zi kulib gap ochib qoldi opam. Bu so‘zlar menga qattiq ta‘sir qildi. O‘zimni ortiqchaday seza boshladim. Uydan bosh olib ketgim kelardi. Ancha paytgacha undan arazlab yurdim. Bir kuni uyqudan uyg‘onganimda opamni ko‘rmadim. Kechgacha ham daragi bo‘lmadi. Rosa yig‘ladim. Opam shomga yaqin uyga so‘ppayib kirib keldi. Ust-boshi bir ahvolda, qo‘lida ketmoni ham bor edi. Ko‘zlarimning qizarib shishganidan yig‘laganimni sezib, ovqat mahali buning sababini so‘radilar. Alamimdan ovozimni balandlatib: “Bizlarni tashlab ketavering, kelib nima qilardingiz”, – deya baqirdim. Opam mening nimadan jazavaga tushayotganimni payqadi, shekilli, nim tabassum bilan: “Sizlarni tashlab, hech qayerga ketmayman. Bugundan dalada ish boshlandi. Tongda sizlarni uyg‘otgim kelmay, sekingina chiqib ketgandim”, – dedi. Opamning bu gapidan ko‘nglim biroz taskin topgan bo‘lsa-da, nimagadir ko‘p arazlaydigan

bo‘lib qoldim. Lekin shunday paytlarda ham opamning nimasidir meni o‘ziga tortardi. Hatto yuzlariga qarab tursam ham, arazim tarqab ketardi.

Urush borgan sari kuchayar, kechki payt bomba ovozi eshitilganda, besh opa-singil opamning pinjiga tiqildik. Bir paytlar onam yaxshi kunlar kelishi haqida aytgan bo‘lsa, opam faqat bizning kelajagimiz haqida gapirardi. Dalada ishlab topgan puliga bizning qornimizni to‘yg‘izardi. Undan aslo shikoyatim yo‘q edi. Chunki opam men va singillarimning ikkinchi onasi edi.

Shu paytgacha va umrimning oxirigacha menda bir armon qoldi. U ham bo‘lsa, opam bilan bog‘liq. Bir kuni onamni qattiq esladim. O‘zim bilmagan holda: “Onamning o‘rnida sen ishlaganingda, o‘lmasdi”, – deb yuboribman. Opam bir-ikki kun boshqacha bo‘lib yurdi. Ammo tez orada yarashib oldik.

O‘sha kezlarda opam sal e‘tiborsizligi tufayli ariqqa yiqilib tushdi va og‘ir jarohat olib, ancha paytgacha dalaga chiqolmadi. Raisimiz shaharda ish borligini, maoshi ham tayinli ekanini opamga

aytibdi. Opam bizlarni tashlab ketgilari kelmasdi, ammo pul ham kerak edi. Shuning uchun askarlarga kiyim tikadigan boʻlib shaharga ketdilar. Bir kuni opamni izlab oʻsha yerga bordim. Meni koʻrgan dugonalari: “Qarab yuborsang-chi, “bo-lang” keldi”, – deya kinoya qilib, rosa kulishdi. Opam esa ularning gaplariga parvo ham qilmay, meni uzoq vaqt bagʻriga bosib turdi va achchiq yigʻladi.

Oradan biroz vaqt oʻtib, uyimizdagi shkaf usidan bir tilla zirak topib oldim va uni bir rus ayoliga pulladim. Bu yangilik bilan opamni xursand qilish ilinjida uni intizorlik bilan kuta boshladim. Taqdirni qarangki, kechga yaqin uyimizga bir xat keldi. Pochtachining izidan raisimiz kirib keldi va bizga opamning vafot etganini aytib, taʼziya bildirdi. Koʻzimizda yosh bilan uni qabrga qoʻydik...

Opamning oʻlimida oʻzimni aybdordek his qilardim. Oʻsha gaplarni aytganim uchun ezilib, shundan tarki dunyo qilgan, deb oʻylardim. Kechga borib, pochtachi keltirgan xatni ochib oʻqidim. Opam bizdan uzr soʻrabdi. Oʻlimiga urushda jon

taslim qilayotgan insonlar sababchi ekanligini, yuragi ortiq bunday yukni ko'tara olmasligi va o'sha shkaf ustidagi zirakni bizlarga tashlab ketganligini yozib qoldiribdi. Opamga achinardim. Hali yosh va go'zal edi. Uyimizga kelgan sovchilarga ham bizni deb rad javobini berardi.

Oradan yillar o'tdi. Hayotimiz yaxshilandi. Urush ham tugab, yaxshi kunlar boshlandi. Ba'zan opam haqida o'ylab qolaman. Hozir hayot bo'lganlarida qanday yaxshi bo'lar edi, bizni baxtimizni ko'rardi. Shu kabi eski xotiralarni eslab, qiynalaman. Armonimga keladigan bo'lsak, opamni xafa qilganim uchun uzr so'rash va barchasi uchun rahmat aytishga ulgurmadim.

Bu hikoya hayotimning qisqagina lavhasi edi, xolos. Ota-onam va opamning o'limiga urush sabab bo'lgan. O'zi bu urush qancha insonning umriga zomin bo'ldi. Dahshat ichida zulmat bilan o'tgan kunlar ham o'tdi-ketdi-ya! O'zi-ku shu tinch kunlarni opam xohlagandi. Lekin bu kunlarni opaginam ko'rmadi-ya deb ko'zga yosh olib, singillarim bilan eslaymiz.

## BAHORNI KUTIB...

Bobomdan qolgan bog‘imiz bo‘lardi... Zerikkan paytlarim boqqa chiqib aylanardim. Mana, bugun ham darsdan toliqib keldim va charchog‘imni bosish uchun o‘zimni bog‘ga urdim. Sim to‘siqdan shundoqqina ko‘rinib turgan qo‘shni bog‘da qo‘shnimiz gullarni parvarish qilayotgandi. U negadir ko‘zimga har doim mahzun ko‘rinardi. Qo‘shni ayol ishga shunchalik berilib ketgan ediki, so‘rashib o‘tay “Meni ko‘rib sal kayfiyati ko‘tarilar”, deya yonlariga bordim. So‘rashgandan so‘ng u kishiga “hali bahor kelmadi, siz uni intizorlik bilan kutarkan-siz-a?” – deya kulimsirab gapirdim. Qo‘shnimiz biroz sukut saqlab, gapira ketdilar: “Ayol uchun farzand sog‘inchi og‘ir ekan. Agar u qiz bola bo‘lsa, judayam qiyin. O‘g‘lim o‘qishga ketib bir oyda bir kelsa-da, qizim o‘n kungina sayohatga ketganida uni sog‘inib qolardim. Yigit kishi har yerda ham o‘zini eplay oladi. Lekin qiz bola suv, suvga tegsang loyqalanadi, qoladi. Uni eplash ham qiyin. Qiz bolaning joni qirqta bo‘lsa ham,

Alloh bir marotaba yashash imkonini berar ekan. 2000-yilning yoz oylari. O'g'limni tug'ilgan kunini nishonladik. Ertasiga qizalog'imni tobi qochdi. Ko'p yo'talib, o'pkasini uzolmay qoldi, shifokorga olib bordim. Avvaliga oddiy shamol-lash deyishdi. Keyinchalik ahvoli og'irlashdi, yurishga ham qiynalib qoldi. Ancha kunlik tekshiruvlardan so'ng saratonligi aniqlandi. Qizimga aytmadik. O'sha kundan boshlab ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. Atigi olti oy umri qolgan edi. Buni undan yashirdik, lekin bizning horg'in yurganimizni ko'rib o'zi aytib qoldi: "Bilaman, men o'laman. O'lsam ham bahorni ko'rib o'lsam bo'ldi", – dedi va o'g'limni yoniga borib: "Aka, o'qishdan qaytguningizcha bahorni olib keling, men uni kutib turaman", – dedi ko'z yoshlarini yashirolmay. Oradan olti oy o'tdi. Bahorgacha bir oylar qolgandi. Taqdir o'yinini qarangki, qizalog'im bu yorug' dunyoni tark etdi. O'zimga kelishim qiyin bo'ldi. Shu bog'ga chiqib o'zimni chalg'itadigan bo'ldim. Gohida osmondan uchib o'tgan qaldirg'ochlardan bahorni so'rayman, nega bahorni ertaroq olib kelmaganini aytib ar-

mon qilaman. Agar bahor tezroq kelganida qizalog'im uni ko'rib, o'n ikki bahorni nishonlab ketarmidi, deya o'ylab qolaman. Bahorni nafaqat o'limidan oldin, balki har yili ko'zlari to'rt bo'lib kutardi. Bog'dagi bu manzaralardan nima uchun qizim bahorni kutib yashaganini bildim. Bahor sizning qalbingizga ezgulik urug'larini sepib sizga kayfiyat ulasharkan. To'g'ri, men ham bahorni kutib yashayman. Lekin mening qizalog'im uni chin qalbidan kutardi. Agar hozir hayot bo'lganida, o'n sakkiz bahorini nishonlardi", – deya ko'zlaridagi yoshni artdilar. Yaralarini yangilaganim uchun uzr so'radim va uyga kirdim. O'ylab qaragam, men bahorni u kishichalik kutmas ekanman. Men bahorni shunchaki daraxt shoxlarini sindirib dovuchchalarni terib yeyish, sho'xliklar qilish uchun kutar ekanman...





Zemfira  
Tsonova

8-sinf o'quvchisi

### TAVBA

*“Balki, bo'lolmadim sizga munosib,  
Buni kech bilganim uchun ham tavba.  
Sizga she'rlar bitib, maktublar yozib,  
Bezovta qilganim uchun ham tavba”.*

**Abdulla Oripov**

Siz bilan hayotim go'zal, deb o'ylab,  
O'rganib qolganim uchun ham tavba.  
Sizni ta'rif etib, siz haqda so'ylab,  
Vaqtingiz olganim uchun ham tavba.

Sizni ko‘rgan edim ajib gulzorda,  
Quvonib ketganim uchun ham tavba.  
Ko‘nglingiz bormidi o‘zga bir yorda,  
Baxtlarga yetganim uchun ham tavba.

Shodon his etardim o‘zni siz bilan,  
Bemavrid so‘zlarim uchun ham tavba.  
O‘sha damda sizni bexosdan ko‘rgan,  
Bu mungli ko‘zlarim uchun ham tavba.

## SHAMOL

Qushlar chug‘urlaydi, havo ajoyib,  
Tabiat fusunkor bir ko‘rinishda.  
Arazlar, ginalar bo‘lmoqda g‘oyib,  
Ezgulik, saxovat bordir har ishda.

Kapalak uchganda oshadi zavqing,  
Har bir gulni hidlab ko‘rging keladi.  
Baland toqqa chiqib kelar hayqirging...  
Baxmaldan mayin bir shamol yeladi.

## PANOH

Seni eslaganda kelar dilimga,  
Tomchilardek tiniq, mayin xayollar.  
Gohida quvonib o‘zim o‘zimga,  
Beraman g‘alati ajib savollar.

Tunlari qayg‘ular ichida qolib,  
To‘yib yig‘lagan cha jim qolganimda.  
Uyquni eltasan kipriklaringa,  
Yupatasan meni tin olganimda.

Mehringni sezaman shunda nogahon,  
Sen borsan, sira ham chekmayman ozor.  
Doimo yo‘limni yoritib tursang,  
Men baxtli yashayman mag‘rur, dilafgor.

Mehringdan doimo bo‘lib umidvor,  
Sinovdan ham hikmat ko‘zlayveraman.  
Kun kelib lablarim qurib qolsa ham,  
To‘qson to‘qqiz isming so‘zlayveraman.

## VAQT

*G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni,  
Kapalak umriga qiyos etgulik.  
Ba'zida bir nafas olgulik muddat,  
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.*

**G'afur G'ulom**

Umrдан bahramand bo'lmoliq uchun,  
Ba'zida hattoki bir lahza yetar.  
Hayotning qadriga yetmaymiz goho,  
Umr ham, afsuski, tez o'tib ketar.

Birovning ko'ngliga ozor berish-chun  
Ba'zida bir lahza yetib ortadi.  
Zulmat ichra yotgan bir bechoraning,  
Kimdir kelib birdan qo'lin tortadi.

Bir lahza yaxshilab o'ylangan reja,  
Kelajak tomonga uzatadi qo'l.  
Agar bir lahza ham unumli bo'lsa,  
Farovon hayotga ochiladi yo'l.

Bir lahza umrga bog‘liq har narsa,  
Bir onning ichida yaralar hayot.  
Shu onning o‘zida dunyoga kelar,  
Va dunyodan ketar inson degan zot.

Bir lahza ichida biror insonning,  
Hayotin qutqarmoq mumkindir hatto.  
Bir lahza ichida butun fikrni,  
Barbod qila olar kichik bir xato.

## O‘ZBEK

*O‘zbekka o‘xshatish topmoq muammo,  
O‘xshasa o‘ziga o‘xshaydi o‘zbek.  
Qiyosi yo‘q uning mehri bir daryo,  
Dunyoda bolam, deb yashaydi o‘zbek.*

**Muhammad Yusuf**

Ko‘ylagi yirtilsa yamab, avaylab,  
Yangi kiyim olib kiymas ataylab.  
Bozordan eng shohi libosni tanlab,  
Ol, kiygil, bolam, deb yashaydi o‘zbek.

Tunlari og‘riqdan qiynalganda ham,  
G‘iybatlardan qalbi tirnalganda ham,  
Hatto biror dardga chalinganda ham,  
Allohga shukur, deb yashaydi o‘zbek.

Qo‘lidan tushmaydi aslo ketmoni,  
Dalada rizq terib o‘tar har oni,  
Mo‘l hosil bersa gar bug‘doyi, doni,  
Eng baxtli insondek quv naydi o‘zbek.

Egnidan qo‘ymaydi eski choponin,  
Sanab bo‘lmas qilgan mehnatin sonin,  
Har doim sog‘ bo‘lsa shu issiq joni,  
Kunni kunga ulab yashaydi o‘zbek.

Quyoshdan ertaroq turar ertalab,  
Bolasin bag‘riga bosar erkalab,  
Faqat mehrtalab, faqat kuytalab,  
Allohga iltijo qiladi o‘zbek.

Orzu qilsa, qilar faqat Makkani,  
Tavof qilsam deydi ulug‘ Ka‘bani,  
Tilidan qo‘ymaydi aslo tavbani,  
“Qur‘on”lar, “Hadis”lar yodlaydi o‘zbek.

Yov kelsa yurtiga, jon fido qilar,  
Vatanni sevmoqni imtihon bilar,  
O'lsa ham birgina shu yurtda o'lar,  
Vatanim, yurtim deb yashaydi o'zbek.

Dasturxoni to'kis tursa to'y qilib,  
Farzandi baxtidan ko'zlari kulib,  
Yashasin doimo shodlikka to'lib,  
Har doim bolam, deb yashaydi o'zbek.

O'xshashin topdingmi satrlar terib,  
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.  
Bir olam o'zgacha ilhomlar berib,  
Ol, yozgin, bolam, deb yashaydi o'zbek.

## **MEHRIBONIM**

Oqshom kirib, qorong'u tushdi,  
Sog'inchlarga ko'mildim yana.  
Telba qalvim senga talpinar,  
Bugun seni sog'indim, ona.

Kunduzlari bo'lib baxtiyor,  
Qushlar kabi etmas ham parvoz.

Yaproqlarga aytaman dardim,  
Ular meni tushunar birga.

Har daqiqa, har bir onimda,  
Qalbim doim senga intizor.  
Vujudimni bosgan mavhumlik,  
Tushunarsiz, ammo beg'ubor.

Yulduzlarga termilaman goh,  
Ular seni menga eslatar.  
Sog'inchlarim shunchalar cheksiz,  
Ortda qolar ulug'vor tog'lar.

Betob bo'lma, sening uchun men,  
Kerak bo'lsa qulataman taxt.  
Mehribonim, uyga kiriboq,  
Tabassuming ko'rmoq menga baxt.

## HAYOT

Yuksaklikka intilsa doim,  
Azoblardan qutulsa omon.  
Mehr to'la farishta bo'lib,  
Umr bo'yi yashasa inson.

To‘lqinlanib, orzuga to‘lib,  
Xayollardan yaratib bayot.  
Yashasaydi agar odamzod,  
Go‘zal bo‘lib ketardi hayot.

## **BAXTIYOR KUNLARIMDAN BIRI...**

*(Hikoya)*

O‘sha voqea hali-hamon yodimdan chiqmaydi...

Qish kunlari edi. Onam menga birga do‘konga borib, bahonada sayr qilib kelishimizni aytib qoldilar. Zerikib turgandim, tezda ustki kiyimlarimni kiyib, onamga ergashdim. Tabiat ajoyib ko‘rinishga kirgan, atrof oppoq qor bilan qoplangan. Do‘konga borguncha rosa qordan bahra oldim. Do‘kondan o‘zimizga kerakli narsalarni olib tashqariga chiqdik. Uyga qaytayotib, ko‘zim bizdan yetti qadamlar narida, daraxt ostida oppoq qor ustida yotgan kuchukchalarga tushdi. O‘sha tomonga yugurgiladim. U yerda ikkita kuchukcha sovuqdan qunishib tinmay akkillardi. Ularning biri oq, biri qop-qora bo‘lib, hali juda

kichik va yoqimtoy edi. Tug‘ilganiga taxminan ikki-uch hafta bo‘lgan, chamamda. Onam ham tezda yonimga keldilar. Ikkimizning ham kuchukchalarga judayam rahmimiz keldi. Shunda onam: “Endi bu kuchukchalarni nima qilamiz?” – dedilar. Men onamning ko‘zlariga mo‘ltirab qaradim. Onam nima demoqchi ekanimni angladilar, shekilli, “Bittasini uyga olib keta qolamiz”, – dedilar. Men esa “Ikkalasini ham olib keta qolaylik”, – dedim, yalingannamo. Onam rozi bo‘lmadilar. Kunlar juda sovuq, ikkisiga birdek qaray olmaymiz dedilar, keskin ohangda. “Ikkisiga ham o‘zim qarayman, ovqatini vaqtida berib, g‘amxo‘rlik qilaman”, – dedim o‘pkam to‘lib. Bunday qaragam, onam rozilik bildiradiganga o‘xshamaydi. Shunda agar rozi bo‘lmasalar, shu yerda qolishimni aytib, xarxasha qildim. Onam bu injiq fe‘limni yaxshi bilganlari uchun noiloj rozi bo‘ldilar. Quvonchim ichimga sig‘may ketdi. O‘sha damda mendan baxtiyor inson yo‘q edi olamda.

Kuchukchalarni olib, uy tomon yo‘l oldik. Ikki qo‘limda ikkita kuchukcha, kayfiyatim

chog‘, chopib-chopib ketyapman. Uyga yetib keldik. Kuchukchalarning ismlarini ham Belka, Strelka deb o‘zim qo‘ydim. Ukam ham ularni juda yaxshi ko‘rib qoldi. Kichkinaligimdan kuchukchalarni yaxshi ko‘rganligim bois ularga yaxshi qaray boshladim. Hozir ular ancha katta bo‘lib qolgan. Maktabdan qaytishim bilan ko‘zim ikkita momiqvoylarga tushadi.

O‘shandan buyon bir narsa odat bo‘lib qolgan: ukam ikkimiz har qishda ko‘chaga chiqib, osha daraxt tagiga borib kuchukchalarning onasi kelmadimikan, deb izlab kelamiz...

## **ANOR**

*(Hikoya)*

Bir kuni maktabdan qaytayotib ko‘chamizga burilgan ham edimki, bizdan uch-to‘rt hovli narida, yo‘lda bir tugun anorning sochilib yotganini ko‘rib qoldim. Bu ko‘chada bir oila yashar edi. Ularning hovlisida deyarli har kuni urish-janjal arimasdi. Men anorni ana shu hovli yaqinidan topdim. Tong sahar ularning hovlisidan ko‘taril-

gan baqir-chaqir ovozi butun ko‘chani uyqudan uyg‘otib yubordi, desam mubolag‘a qilmagan bo‘laman.

Anorlarni uvol qilgim kelmay, terib papkamga soldim. Uyga kelsam, uy to‘la mehmon ekan. Jiyanlarim hovlini boshiga ko‘tarib shovqin qilib o‘ynashardi. Ularni ko‘rib, zavqim oshib ketdi. Birdan papkamda anorlar borligi esimga keldi. Anorlarni olib, bolalarga ulashdim. Bolalar anorlarni hovlimizdan oqib o‘tayotgan ariqdagi zilol suvga yuvib yeya boshladilar. Ular anorlarni shunchalik maza qilib yeyishardiki, ularga qarab, rosa zavqlanib o‘tirdim.

Ertasi kuni ertalab o‘sha xonadon bilan yonmayon yashaydigan Naima xolaning onam bilan suhbatlarini eshitib qoldim. Birovning gapini eshitish qanchalik noto‘g‘ri bo‘lmasin, o‘sha mavzuga aloqador bo‘lganim uchunmi, suhbatga beixtiyor quloq soldim...

Voqea bunday bo‘lgan ekan. Shahlo opa (o‘sha oilada yashovchi ayol) eriga bolalari uchun shirinlik olib kelishini aytibdi. Ammo Umid akaning puli yo‘q, yaqindagina maoshi-

dan saqlab qolgan pulini ham ro‘zg‘or xarajatlari uchun sarflab qo‘ygan edi. U bir boy kishining bog‘ida daraxtlarni parvarish qilish bilan shug‘ullanardi. Xo‘jayini juda saxiy va ochiqko‘ngil odam edi. Umid aka ishga kelayotib uni yo‘lakda ko‘rib qoldi. Birdan xayoliga undan qarz so‘rash fikri kelib qoldi. Xo‘jayini u bilan quyuq so‘rashgani uchunmi, uning mehrini suiiste‘mol qilayotganday tuyulib, pul so‘rashga iymandi. Ammo uning har doimgidek ma‘yusligini sezgan xo‘jayini yoniga kelib, xomushligining sababini so‘radi. Umid aka sir boy bermadi. Xo‘jayini anorlardan terib, bolalariga olib ketishini tayinladi. U kechga yaqin anorlarni olib, uyga keldi. Xotining ertalabki alami tarqamagan ekan, shekilli, qayerdagi chang bosgan anorlarni olib kelibsiz, deb urushni yangiladi. Erining bu anorlarning shirin va foydali ekanligi haqidagi gapini eshitishga toqat topolmagan xotin o‘zini ichkari uyga urdi. Biroz o‘tib, zardalanib uydan chiqdi-da, erining ko‘z o‘ngida anorlarni ko‘chaga uloqtiribdi.

Oradan bir necha oylar o‘tdi. Shu voqea sababmi, Umid aka uyga anor olib kelmay qo‘ydi. Bir kuni ko‘chada o‘ynab o‘tirganimizda bolalari

anor yegilari kelganini aytib qolishdi. Men bir paytlar shu hovli yonidan olib ketgan anorlarni endi qaytarish payti kelganini angladim. Otam maktabda tushlik uchun bergan bir haftalik pulni ishlatmasdan yig'ib yurdim. Yakshanba kuni do'konga chiqib, o'sha pullarga anor sotib oldim va ularnikiga bordim. Qo'limdagi anorlarni bolalarga ulashdim. Ularning xursandchiligini ko'rgan ota-onaning ham kayfiyati ko'tarilib, bir-birlariga shunday samimiyat bilan qarashdiki, anor donalari kabi sochilib ketgan mehr-u muhabbatlari qaytganday bo'ldi.





**Fotima  
Baxtiyorova**

8-sinf o'quvchisi

## **XAYOL**

Mashinalar yeladi g'ir-g'ir,  
Osmon to'kar ko'z yoshlarini.  
Daraxtlarning barglari dir-dir,  
Titramoqda egib boshini.

Derazamdan mo'ralab kunga  
Bir beozor suraman xayol.  
Quyosh kulib qaraydi menga,  
Bamisoli so'raganday hol.

Varaqlayman kitobni sekin,  
Chiqib kelar bir siymo gʻamnok.  
Koʻzlarimning ichida sokin,  
Koʻrinadi u begʻubor, pok.

Yozadirman ajib ashʻorni,  
Yuragimda shirin orziqish.  
Qalbdan haydab solgum gʻuborni,  
Lek xayolda oʻzgacha qalqish...

## GULLAR

Bahor yashil koʻylagini kiygan. Rosa chiroyli manzaralar. Men esa oʻsha anvoyi gullarni koʻrish uchun koʻchaning boshidagi bogʻga oʻrtoqlarim bilan birga bordim. Gullar juda xushboʻy va chiroyli, qolaversa, bogʻdagi daraxtlarni aytmayisizmi, goʻzallikda gullab-yashnagan. Men hayratlarimni yashirolmasdan, goh daraxtlardagi gullagan novdaga qoʻnayotgan asal-arilarni tutmoqchi boʻlaman, goh gullarni hidlab huzurlanaman va oʻrtoqlarimga qarab: “Nima deb oʻylaysizlar, mana shu gullarni xushboʻy hid

taratib turishining sababi nimada ekan?!” dey-man entikib. O‘rtoqlarimning bergan javoblari-dan ko‘nglim to‘lmaydi.

Shu tariqa bir necha kunlar o‘tdi. Kunlar-dan bir kuni men bir tush ko‘ribman. Tushim-da osmon va yer o‘rtasidagi bo‘lgan suhbatni eshitib qolibman. Osmon debdi: “Men yaqinda bulutni yig‘latmoqchiman. Sening ekinlaring tayyormi?!” Shunda yer: “Ha, Tabiatxonim ular-ni tayyor qilib qo‘ygan. Agar vaqt topolmasang, men o‘zim ariqlardan suvlarni jo‘nataveraman”, – dedi. Keyin osmon shoshib: “Ha, aytgancha, yer, qachon gullarga xushbo‘y hidli kukunni sepib chiqamiz. Mana, mart oyi ham oxirlab qol-di”, – dedi. Yer: “Mayli, sen kukunni sepishga tayyorlanaver, men o‘zim gullarni ogohlantirib qo‘yaman”, – dedi. Osmon: “Bo‘lmasa ishlarni ertagayoq boshlaymiz”, – dedi quvonib. Chunki uning uchun gullarga kukun sepish juda ham qu-vonarli ishlardan edi.

Tushim shu yerga yetganda, shirin uyqudan uyg‘onib ketibman. Nonushtadan so‘ng ko‘chaga chiqdim. Qarasam, ko‘chada gullarning muattar

hidi taralib turardi. Bu hid kechagi xushboʻylikdan-da shirin edi. Rosa quvondim. Soʻngra oʻylab qoldim. Shuning uchun ham bahorning ifori oʻzgacha ekan-da...

## QIZIQISH

(*Hikoya*)

Havo yaxshi. Kunlar doimgidek poyezd boʻlib uchmoqda. Koʻchada bir toʻda bolalar chumchuq polaponlaridek chugʻurlashardi. Tushga yaqin hamma uy-uyiga tarqab ketdi. Bolalar ogʻzidagi oshini yutar-yutmas, shoshilib yana oʻyinni davom ettirish uchun oʻzlarini koʻchaga otishdi. Koʻchaning boshida yashovchi Botir ustaning bolalari allaqachon toʻp tepishni boshlab yuborishdi. Ularning koptoklari uchib borib devor tagiga tushdi. Toʻpni olgani borgan Sarvarning koʻzi sal nariroqda, tuproqqa qorishib yotgan allanarsaga tushdi. Yaqinroq borib qaradi va kitobni koʻrdi. Kitobning changini qoqib, uni singlisi Sarvinozga uzatdi. Sarvinoz kitobni qoʻliga olib, uni varaqlab oʻqishni boshladi.

Unda “Agar sen dunyoning barcha bilimlarini egallamoqchi bo‘lsang, kitobning keyingi sahi-fasini och”, deb yozilgandi. Bundan hayratlan-gan Sarvar kitobni olib, keyingi sahifani ochdi. Bu sahifada Sarvarning payshanba kuni matema-tikadan yechishga ulgurmagan masalasi, Sarvi-nozning javob topolmagan savoli, Murodning ingliz tilidan bajarmagan uyga vazifasi keltirilib, uning ostiga “Agar bilimli bo‘lishni istasang, ba-jarmagan topshiriqlarni hoziroq bajar”, deb yo-zilgandi. Bolalar qattiq va chuqur nafas oldilar. Hattoki, o‘yin ham eslaridan chiqdi. Keyin uzoq o‘ylab chala qolgan ishlarini oxiriga yetkazdi-lar. Topshiriqlarni to‘g‘ri bajarganliklari uchun keyingi sahifalarda keltirilgan rag‘batlarni ko‘rib rosa sevindilar.

Men bolalarni bir chetdan turib kuzatib tu-rardim. Ularni qiziqtirish uchun o‘ylab topilgan yo‘l to‘g‘ri ekanligini anglab yetdim va bugungi qilgan ishimdan qoniqish his etdim.



Anora  
Ismatova

8-sinf o'quvchisi

## YASHIL DENGIZ

*(Hikoya)*

Biz oilamiz bilan shaharda turardik, buvim esa qishloqda yashardilar. Bir kuni buvimlarnikiga boradigan bo'ldik. Ular yashaydigan qishloq juda so'lim edi. U yerda kattagina bug'doyzor maydoni bo'lib, meni ko'proq o'ziga chorlaydigan narsa mana shu manzara edi. U yam-yashil va to'liq bug'doylarini silkib dengiz kabi chayqalardi. Qishloqning nomi ham "Yashil dengiz" deb atalardi. Aslida, qishloq nomi "Yertepa" edi. Ammo hech kim uni bu nom bilan atamas, mabo-

do kimdir so‘rab qolguday bo‘lsa, “Yashil dengiz” deb javob berishardi. Men esa bunga juda ham qiziqardim...

Buvim qishloqda yolg‘iz yashardilar. Ota-onam buvimga biz bilan birga yashang, deb qancha qistasalar ham sira unamasdilar. “O‘z uyim o‘lan to‘shagim. Shu yerda tug‘ildimmi, shu yerda o‘laman”, – deya oyoq tirab turib olardilar.

Erta tongda yo‘lga tushdik. Uzoq yo‘l yurib, bug‘doyzorga ham yetib keldik. Ko‘z o‘ngimni ajib bir go‘zallik qopladi. Bug‘doy boshloqlari go‘yoki dengiz suvlaridek to‘lqinlanib, yoqimli chayqalardi. Buvimnikiga yetib keldik hamki, bu manzara xayolimdan ketmadi. Buvim bizlarni ko‘rib sevinganidan o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Dasturxon atrofida kechgan suhbat yanada qiziqarli kechdi. Tushdan so‘ng bug‘doyzorni tomosha qilgani bordim. Mayin shamol jilosida tovlangan bug‘doy maysalari yashil dengizga o‘xshardi. Ayniqsa, yomg‘ir yog‘gan paytlarda yanada yashillanib tovlanardi. Odamlar bu yerni nega yashil dengiz deyishgani ni endi anglaganday bo‘ldim. Bu bug‘doyzordan

qishloq ahli uzoq yillardan buyon foydalanib keladi. Buvim bug‘doyzor haqida gapirganda, qattiq ocharchilik yillarida qishloq odamlarining hayotini saqlab qolganligini aytib charchamasdi. Buvim ham, qishloq ahli ham bug‘doyzorning kelgusi taqdiri haqida hech nima bilmasdilar. Bu yerlar yaqin orada buzilib, o‘rniga ko‘p qavatli imorat qurilishi rejalashtirilgani ularga ma‘lum emasdi. Aksiga olib, bu loyihaning muallifi mening otam edi. Men ham buni yaqinda bildim. Aslida, qishloqqa kelganimiz boisi ham shu edi. Buvim buni eshitsalar qattiq xafa bo‘ladilar. Ammo men ham bu loyihaga qarshi edim. Shunday keng maydonda yashab turgan bug‘doylarni yakson qilish vahshiylik edi. Otamga o‘sha yerni buzmasliklarini bir necha bor aytib ko‘rdim, biroq foydasi bo‘lmadi. Otam bu o‘zining qo‘lida emasligi, unga ham yuqoridan topshiriq berilganligini aytib tushuntirdi. Otam buni atayin qilmayotganligini yaxshi bilardim.

Otam bizga bir muddat qishloqda yashashimizni aytdi. Ishga ham shu yerdan qatnaydigan bo‘ldi. Otam erta tongda ketar va ish-

dan juda kech qaytardi. Uyda ham qog‘ozlarga ko‘milib ishlardi. Keyinchalik buvim ham, qishloq ahli ham bu loyihadan xabar topishdi. Ular, ayniqsa, buvim bundan norozi edi. Har kuni buvimning eshigi oldida odamlar to‘plana boshladi.

Buvim va men har kuni bug‘doyzorga borardik. Buvim bug‘doyzor bilan o‘z tilida gaplashardi. Bir kuni u shovullagan bug‘doylarga qarab ancha vaqt jim qoldi. Men buvimning nima haqida o‘ylayotganini his qilardim. Uni biroz chalg‘itish uchun savollar bera boshladim.

– Buvi, bug‘doyzorni kim barpo etgan?

– Eh qizalog‘im, bu joylarning tarixi juda uzun. Bu yerlar menga otameros! Bobom rahmatli: “Qishlog‘imizning ildizi – yashil dengiz!” deya ta‘kidlardi. Hov anavi tegirmonni ko‘ryapsanmi? Uni butun qishloq hashar yo‘li bilan qurgan.

– Demak, bu bug‘doyzor boshqasiga o‘xshamas ekan-da?!

– Ha, shunday, bolam! Qani endi boshqalar ham sendek o‘ylasha!

Buvim to quyosh botguncha bug‘doyzorga termilib o‘tirdi. Uning ko‘zlarida armonli bir ifoda ko‘rinib turardi.

Bir haftadan so‘ng qishloqda katta buldozer va ekskavatorlar paydo bo‘ldi. Otam kun-u tun uxlamasdan o‘z ishlari bilan band, oyim buvimni olib ketish uchun narsalarini yig‘ish bilan ovora, men esa “Yashil dengiz”ga termilgan cha xayol surib o‘tirardim. Buvim nega uylarini tashlab, biz bilan shaharga ketmasligini endi tushunib yetgandim.

Ertasiga tong sahardan buldozerlar ishga shaylanib, bug‘doyzorni o‘rab olgan, men esa “Yashil dengiz”ni qutqarmoqchiday, u tomon yugurib borardim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, butun qishloq ahli yig‘ilib, bug‘doyzor atrofini o‘rab olgan edi. Shu payt katta yoshli bir kishi: “Hoy, esingiz joyidami, chetga o‘tinglar!” deya tinimsiz baqirardi.

Buvim ham olomon ichida edi. Bug‘doyzorni buzmoqchi bo‘lsangiz, avval bizlarni bosib o‘tinglar, deganday yo‘lni to‘sib turishardi. Buldozerlar biror ish qilolmasliklarini bilib, tur-

gan joyida turib qoldi. Oradan bir qancha vaqt o‘tdi hamki, buldozerlar va ekskavatorlar “Yashil dengiz” yonida terilib turardi.

## YAXSHILIK

Endi uyqudan turgandim, qaragam soat allamahal. Yana darsga kech qoladigan bo‘ldim. Dars jadvalimni apil-tapil almashtirib, maktab tomon yugurdim. Maktabga borgach, sinf eshigini taqillatib, sinf xonasiga kirish uchun ustozdan ruxsat so‘radim. “Ha, vaqtida kelding, kiraver”, – dedilar adabiyot o‘qituvchimiz.

Atrofga alanglab qayoqqa o‘tirishni bilmay, oxirgi partaga borib cho‘kdim. Sumkamni ochib dars jadvalimga qaragam adabiyot darsi 2-soatda turibdi. Birinchi soat o‘tib ketganini anglab xijolat bo‘lib turgandim, ustozimiz shu oying kelgusi hafta oxirida tanlov bo‘lishi, “Yaxshilikni kimlarga qilish kerak?” mavzusida insho yozib kelishimiz haqida aytib qoldilar.

– Kimda savol bo‘lsa, so‘rayveringlar, – dedilar mavzu haqida ma’lumot berib bo‘lgach.

Shunda sinfdoshim Barno:

– Ustoz, menda savol bor. Bu mavzuda qo‘shimcha hikoya yozib kelsa bo‘ladimi? – deb so‘radi.

Ustoz ohista ovoz bilan: “Ha, bo‘ladi. Hech kimni esidan chiqmasin. Keyingi haftada inshoni yig‘ib olaman”, – dedilar va qo‘ng‘iroq chalin-gach, xayrlashib chiqib ketdilar.

Ustoz sinfdan chiqishi bilan barcha sinfdosh-lar insho mavzusini muhokama qilib ketishdi. Shu tariqa keyingi darslar davom etdi.

Hamma darslar o‘tib bo‘lgandan so‘ng o‘rtog‘im Barno bilan birga ketmoqchi bo‘lib tur-gandim, uni dadasi olib ketishini aytib: “Xohla-sang sen ham yur, uyingga tashlab o‘tamiz”, – dedi. “Yo‘q, rahmat, sizlarni ovora qilmay”, – dedim xijolat chekib va zarur ishim borligini ba-hona qilib u bilan xayrlashib chiqib ketdim.

Maktabdan chiqib, besh-o‘n qadam qo‘ygan edimki, yo‘l chetida to‘xtab turgan mashina va sal nariroqda nogironlar aravachasida o‘tir-gan ayolga po‘pisa qilayotgan bir kishini ko‘rib qoldim. Yaqinroq borsam, bizning ko‘chada tura-

digan Nazira xola. Notanish kishining ketishini kutib, yonlariga bordim. U yig'layotgan edi. Salomlashib bo'lgach, sumkamdagi dastro'molni olib Nazira xolaga uzatdim.

Nazira xola sinfdoshim Sobirning buvisi edi. Keyinchalik avtohalokat tufayli nogironlar aravachasiga mixlanib qoldilar. Sobir uchun o'z buvisi bo'lsa, Sobirning dadasi uchun onasi nogiron bo'lib qoldi. Sobirning otasi xotining gapiga kirib hovlilarini sotib, boshqa joyga ko'chib ketishdi. Nazira xola turmush o'rtog'ining xotirasini unga har dam eslatib turuvchi bu hovli bilan xayrlashgisi kelmay, o'z uyini sotib olgan kishiga iltimos qilib, vaqtinchalik shu yerda qoladigan bo'ldi. Avvaliga o'g'li har kuni kelib xabar olib turdi. Asta-sekin esa qorasini ko'rsatmay qo'ydi.

Haligi notanish kishi ham Nazira xoladan ijara haqini talab qilgani uchun tilanchilik qilayotganini endi tushunib yetdim. O'sha kundan so'ng uydagilarga bildirmay ham dadamdan, ham oyimdan tushlik uchun pul so'raydigan bo'ldim va pullarni yig'a boshladim.

Oradan 4-5 kun o'tdi. Ikki kundan so'ng us-tozim insholarni yig'ib olishi esimga kelib qol-di. Sinf-doshim Barno ham shu masalada aytib qoldi. Ustidagi chiroyli ko'ylakni ko'rib undan ko'ylakni kim tikkanini so'radim. U bu ko'ylakni qo'shnimiz Nazira xola tikib berganini aytdi.

Barno gapini tugatmasdan, yig'gan pullarim Nazira xolaning ijara puliga yetmasligini bil-sam-da, ularning uylariga qarab chopib ketdim. Chunki Nazira xolaning qarigan holidan ham ijara pulini topish uchun tikuvchilik qilishlarini bil-masdim. Uylari yoniga borsam, Nazira xola tikuv mashinasini qo'shnisi Xolida opaga sotayotgan ekan. Nima qilishni bilmay kutib turdim, so'ng yonlariga borib, pulni bermoqchi bo'ldim. Av-valiga olishni istamadilar, chunki atigi 14 yoshli boladan pul olish g'alati bo'lar edi-da. Pulni ber-dim. Shu payt bu holatni mahallamiz raisi Qo-dir bobo kuzatib turgan ekan. Bu Nazira xolaga yaxshiligini ertasiga bilib qoldim. So'ng mahal-lamizdagi barcha insonlar Nazira xolaga yordam berish harakatiga tushishdi.

## MEHRIM BERGUM VATAN DESAM

(Esse)

Mening bobom adabiyot o‘qituvchisi. Har gal darsdan qaytganimdan keyin bobomning yoniga choy damlab borar ekanman, bobom odaticha mendan so‘raydi. Kecha ham shunday bo‘ldi:

– Qizim bugun adabiyot fanidan nimani o‘rgandinglar?

Men quvonib javob berdim:

– Bobojon, bugun adabiyot fanidan Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she‘rini o‘tdik!

– Xo‘sh, nechun biz O‘zbekistonni sevar ekanmiz?!

Daf‘atan berilgan bu savoldan men kalovlanib qoldim. Negaki, bobomning adabiyot fanini chuqur bilishini, ayniqsa, Abdulla Oripov ijodiga o‘zgacha bir mehr bilan qarashini, bu ulug‘ shoirning har bir satridan hech kim kutmagan ma‘no va mazmun topishini juda yaxshi bilardim.

– Biz nechun sevamiz O‘zbekistonni, bobojon? Sababi Abdulla Oripov ta‘biri bilan

aytganda, uni hech qachon boyliklari uchun sevmasligimiz kerak. Balki, uni bir farzand bo‘lganligimiz uchun sevishimiz, unga mehr qo‘yishimiz, uni ardoqlashimiz lozim, dedi ustozimiz Muqaddas opa.

– Yaxshi, yaxshi... Mualliming chindan yaxshi gaplarni aytibdi. Barakalla.

Bobomning bu olqishidan quvonib ketdim.

– Bobojon, yana nima kerak, ayting, olib kelib beraman?! – dedim bobomning maqtovidan quvonchga to‘lib.

– Rahmat, qizim. Hamma narsa bor. Lekin xo‘sh, agar biroz vaqtning bo‘lsa, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she‘rining tahlilini davom ettiramiz. Bilasanmi, shu she‘rda shoir ajoyib bir gap aytgan.

– Qanday gap, bobojon?!

– Jonim qizim, shoir shunday degan: “Ey xalqim, sen agar muzliklarda yashasang, ana shu muzliklarga ham mehrimni berardim” degan. Shu gapning ma‘nosini menga qisqacha tushuntirib bera olasanmi?!

– Ha, bobojon. Tushuntirib bera olaman. To‘g‘risini aytsam, bobojon, boya darsda mual-

limimiz ham xuddi shu siz aytgan satr haqida rosa berilib bizga tushuntirgan edi.

Bu gapning ma'nosi shuki, inson o'z xalqini yer osti va usti boyliklari ko'pligi uchun emas, bog'-u rog'lari go'zalligi uchun emas, tog'lari sarbaland va ulug'ligi uchun emas, faqat shu xalqning farzandi bo'lganligi uchungina sevishi kerak.

“Agar o'z xalqi muzliklar ichida yashasa, shu xalqning har bir farzandi ana shu muzliklarga ham mehr berib yashashi kerak, degan ulug' shoirimiz”, deb bizga tushuntirdi muallimimiz.

Mening xuddi darsda muallimamizga javob bergandek ravon so'zlashimdan bobomning kayfiyati ko'tarilib ketganligini uning menga miyig'ida kulib boqib turganidan sezdim.

Keyin bobom shunday dedi:

Haqiqatan ham, xalq qayerda yashasa, uning farzandlari ana shu yerga mehr berishi lozim, biz ana shundagina buyuk xalq bo'lamiz!

Aslida ham xalqning farovonligi va taraqqiyotiga chinakam hissa qo'shish shu xalqni

bor mehr bilan sevishdan boshlanadi, qizim! Barakalla, muallimangga ham ming rahmat!

Bobomning bu maqtovidan ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi. Ayniqsa, Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabida o‘qiyotganligimdan yuragim faxr va g‘ururga to‘ldi.

Xalqimizning ulug‘ shoiri Abdulla Oripov va mening bobojonim aytgani kabi Vatan taraqqiyotiga, iqboliga, kelajagiga qo‘shiladigan hissa, eng avvalo, uni chinakam farzandlik muhabbati bilan sevish va ardoqlashdan boshlanadi, deb o‘yladim men bobomning yonidan o‘z darsxonamga qaytar ekanman.

O‘quvchilar bilan bir kuni adabiyot fanidan Abdulla Oripovning she‘ri, ya‘ni “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” nomli she‘rini o‘tdik. Bu juda qiziqarli bo‘ldi. Dars tugagach, uyga borganimda bobom mendan so‘radilar:

– Qizim, bugun darsda nimalarni o‘rganding? Shunda men:

– Assalomu alaykum, bobojon! Bugun darsimiz juda ham qiziqarli bo‘ldi. Chunki adabiyot fanidan o‘qituvchimiz Muqaddas

Abdujabborova Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” nomli she‘rini o‘tib berdilar!

– Barakallo! Xo‘sh, biz nega O‘zbekistonni sevar ekanmiz?

– Biz O‘zbekistonni boyliklari uchun emas, balki mehnatsevar xalqi va mehri uchun sevamiz. Men bir narsani tushunib yetdimki, Vatan mehri va bizni unga bo‘lgan mehrimiz har birimizning qalbimizning to‘rida bo‘lishi kerak bo‘lgani kabi, Vatan cho‘l-biyobon va muzliklardan iborat bo‘lsa ham uni sevmoq kerak ekan.

– Barakallo, bolam! Vatan va unga muhabbat nimaligini bilganingdan xursandman.





**Lazizabonu  
Ziyodullayeva**

**8-sinf o'quvchisi**

### **SHOIR DARDI**

Ilhomsizlik charchatdi toldim,  
Dil tubida so'lg'in bir yog'du.  
Yolg'onchilar ishonar, betinim,  
Ilhomlarim haydarmi yohu?

Ko'rgim kelar balki koinot,  
Uchayapman go'yoki oyga.  
Shu top menda bo'lsaydi hayot,  
Quyosh bilan o'ynardim poyga.

Balki, dengiz men uchun panoh,  
Do‘stlasharman baliqlar bilan.  
Ummonlarda suzardim tinmay,  
Do‘stlashardim oshiqlar bilan.

Ko‘ngil kalavasin yechmoqlik uchun,  
Chiqsammikan tog‘lar bag‘riga?!  
She‘rim, qalbim, umrim barini,  
Aks sadolarmi, yutar qa‘riga?

Qolmagandir bormagan joyim,  
Sayohatim cho‘zildi uzoq.  
Balki, atay yolg‘ondan qochib,  
Qo‘ygandlirman o‘zimga tuzoq?

Ilhomsizlik charchatdi, toldim,  
Dil tubida so‘lg‘in bir yog‘du.  
Yolg‘onchilar ishonar, betinim,  
Ilhomlarim haydarmi yohu?

## UMID QO‘SHIG‘I

Tushlarimni notaga solib,  
Yaratsammi bir asar – mumtoz.  
Kuylasammi men ham qo‘shilib,  
Bunchalar bu – shirali ovoz?!

Orzular-la mustahkam bino,  
Ayta qolay sizga ochig‘i.  
Tinglab, kuylab turaman goho,  
Abadiydir umid qo‘shig‘i.

## UZR

Xonaning eshigi ochildi sekin,  
Uyatdan qizarib turardi bola.  
Darsga kech kelganin ifodalash-chun,  
Yolg‘on aytib qilmas bahona.

Balki bundan foyda yo‘q, bilar,  
Rostgo‘uylikdir, balki, hamrohi.  
Jazoning og‘rig‘in his qilib turar,  
Ustozga tushganda nursiz nigohi.

Ko'zyosh bilan yuvilmas gunoh,  
Chizg'ich zarbi og'ritar jonni.  
Sinfdagi bolalar guvoh,  
Tushunmasdi ustoz bu holni.

Bir kun ayon bo'ldi voqea,  
Ustoz iqrar bo'ldi nogahon.  
Bola har ertalab shifoxonadan,  
Akasin kelar olib, u ekan nogiron.

Ustoz chekib ming bora afsus,  
Ko'zyosh to'kib so'radi uzr.  
Jonim bolam, nohaqligim-chun,  
Mana chizg'ich, men nomardni ur!

### **XOTIRA YILLARI**

Negadir bu mudhish hodisani eslasam yuragimning bir parchasi uzilib ketgandek bo'laveradi. O'shanda otam nega nega bunday qildi ekan-a, deb o'ylab qolaman. Axir, ortidan to'rt tekintomoqni chirqillab qolib ketishini o'ylamaganmidi? Xullas, voqeani bayon qiladigan

boʻlsam, oʻsha mashhur urushning sovuq nafasi hamma teshikkacha kirib borgandi. Hamma uyda yigʻi-sigʻi, urushga kimningdir oʻgʻli, kimningdir otasi ketayotgan edi. Har bir uyda chinqiriq, urush chiqarganga laʼnat toshlari otilardi. Qari kampirlar oʻtirib olib bisotidagi “chiroyli” soʻzlar bilan urushni soʻkib-qargʻardi. Toʻyi boʻlganiga 5-10 kun boʻlgan yosh qiz-juvonlarning figʻoni falakka yetardi. Oʻsha paytda koʻchalarda tilanchilik koʻpayib ketgan edi. Ularning koʻpchiligi ota-onasidan ayrilgan yosh-yalanglar edi. Ularga judayam achinardim. Baʼzida uyimizda yeydigan nima boʻlsa, berib yuborgim kelar, lekin hamma yegulikni ularga berib, keyinchalik oʻzimiz shu ahvolga tushib qolishimizdan qoʻrqardim. Front uchun har bir uydan allakimning otasi, bitta yoki ikkita akasi olinardi. Ammo bizning uyimizdan hech kim bu dahshatli urushga safarbar qilinmagandi. Chunki mening dadam oʻpka saratoniga chalingandilar. Dadamni urushga olishdan foyda yoʻq edi. Qoʻshni ayollar onamga havas qilardi. Onam bechora arosatda qolib ketgandi. Bir tomondan

bolalari otasiz qolmaganidan xursand, bir tomondan ayollarning hasadomuz soʻzlari onamga yoqmasdi. Dadamdan gapirsam, toʻrt harfli oʻsha mashʻum soʻz – urush desa, tipirchilaydigan boʻlib qolgan. Bir kuni qoʻshni hovlidan dadamning qattiq-qattiq ovozda gapirayotganlarini eshitib qoldim. “Mening bulardan qayerim kam, kasal degani bormaslik kerak degani emas-ku?” – dedilar. Dadam hansirab, sekinlashdi: “Vatan oldidagi xizmatda sogʻ-nosogʻlomligiga qaramaydi”. Bu dadamning askarlar boshligʻiga aytgan oxirgi soʻzlari edi. Darvoza qiya ochilib dadam uyga nursiz, horgʻin bir ahvolda kirib keldilar. Har doimgidek oʻzining darvoza oldidagi oʻrindigʻi ustiga oʻtirdi. Dadam yuragini changallagancha boshini quyi soldi. Men yugurib borib dadamdan ahvolini soʻradim. Dadam hammasi yaxshi, qizim, deya boshimni siladilar. Menimcha, dadamning tafti issiq kaftlari oxirgi marta boshimni silagan edi. Ertasi kuni dadamni koʻrmadim. Indiniga ham. Hamma hayron. Qayerga ketgan boʻlishlari mumkin. Dadamni bir-ikki hafta hamma yoqdan qidirdik. Keyin

hamma chalg'idi, mendan boshqa. Ikki oy o'tarotmas, bir kuni darvoza eshigi sharaqlab ochildi. O'zi omonatgina darvoza shunaqangi kuchli zarbaga bardosh berolgandi. Borib qarasam, bir cho'loq kimsa, egnida uzun kamzul, bo'yniga uzun bog'ichli sumka osib olgan. Diqqat bilan qaradim, hech qaysi qarindoshimizga o'xshata olmadim. Aslini olganda, qarindoshlarimizning bittasini ham tanimayman. Shunday bemani xayollarga berilib o'tirganimda u menga chaqchaygan ko'zlari bilan ojiz qarab, ko'k konvertni uzatdi. To'g'risini aytsam, bunaqa narsani birinchi marta ko'rib turibman. Onam ortimda ekanligini va u yig'layotganini keyin ko'rdim. Ha, ha angladim, bu pochtachi, ammo bu nima deb qo'limga qaradim. Bu nahotki, qoraxat bo'lsa-ya, ammo hech kim oilamizdan urushga ketmagan edi-ku? Balki, buni qo'shni uyga berishi kerakdir. Lekin qo'shnimiz Salim aka-ga bir hafta oldin qoraxat kelgandi-ku?! Keyin yashin tezligida dadamning bedarak yo'qolganini esladim. Hozirgina hamma narsaga tushundim, dadam bizga, menga aytmay urushga

ketgan ekan. Va angladimki, bu – qoraxat. Onam hali-hamon yig‘lar, yig‘iga opam ham qo‘shilgandi. Ana endi dadamning o‘sha paytidagi holatini tushunyapman. Dadam el oldida sharmanda bo‘lishni xohlamagan. Ularning yana bir tilagi yurt tinchligi, osudaligi bo‘lgan. Eh, esiz ba’zida odamlar sog‘lom bo‘lsa ham joni ko‘ziga shirin ko‘rinib, jang maydonidan qochadi.

Ammo mening yarimjon dadam kelajak avlodga ozod va obod vatan qoldirish niyatida qonli jangoh sari intilgan. Va ular o‘z orzulari yo‘lida qurbon bo‘lgan edilar.

## YUPANCH

Osmon bulut, maktabdan qaytyapman. O‘zi torgina, shunday bo‘lsa ham chumolilar bu yo‘lakchani katta yo‘ldek tutishib, hatto menga ham yo‘l bermasdilar. Hayron qoldim. Nahotki shu mitti jonzotlarning yumushari hammanikidan ham ko‘p bo‘lsa-ya?! Balki, yomg‘ir yog‘ib ularning inlarini yopib qolmasidan inlariga kirib

olishni o‘ylayotgandirlar. Balki, yomg‘ir yog‘ib qolib yerlar loy bo‘lganidan keyin o‘sha yerda nobud bo‘lmaslik uchundir bu shitobon ketish. Ularni bosib olmay, deya zo‘rg‘a oyoq uchida yuryapman. Mendan ozgina oldinda ketayotgan ona-bola bu sukutni buzishardi. Ona tinmay telefonda dugonasi bilan allaqanday zamonaviy liboslar-u, oyoq kiyimlar haqida gaplashar, bola esa tinmay shokolad yeyman, deb onasini turtardi. Onasi esa unga e‘tibor ham bermasdi. Bola zor qaqshab shokolad deb yig‘lardi. Bolaning qaysarligi tutib yerga o‘tirib yig‘lay boshladi. Ona esa hanuzgacha beparvo, ortiga ham qaramay ketaverardi. Qanchalar nodonlik. O‘zi yaxshi ayolga o‘xshaydi. Shu qadar telefonda gaplashishga berilib ketgandi, shu xolos. Ayol anchagina olislab ketgandi. Yugurib borib bolani turg‘izmoqchi bo‘ldim-u, shunda tarbiya fani ustozim aytgan bir gapni shamollar yashin tezligida uchirib keldi. Yaponiyada bolalar yiqilsa, turg‘izib olinmas ekan. Chunki ular o‘zlari turishlari kerak, bu esa ularni kelajakda o‘z kuchlariga ishonib ish ko‘rishga asqatar emish. Agarda bolaga yordam berganin-

gizni ota-onasi ko‘rib qolsa, sizni darrov urishadi. Sababini esa yuqorida aytib o‘tdim. Akincha, bizda bu holat boshqacha. Agarda biror bir bola yiqilib ketguday bo‘lsa, darrov turg‘izib, ovutishga tushamiz. Bu esa o‘zligimizdan darak. Men xayolimdagi bo‘lmag‘ur fukrlarni quvib yuborib, bolani turg‘izdim. U hali-hamon shokolad yeyman, deb xarxasha qilardi. Shunda ukamga olib borayotgan shokoladimni bolaning qo‘liga tutdim. Bolakay quvonib ketdi. Men ketayotganimda bolaning onasi yonimda ekanligini his etdim. U menga rahmat aytib, bolasini yetaklaganicha ketdi. Shu payt jala quyib yubordi. Namchil havodan ezilgan, garchi ukamning istagini bajara olmaydigan bo‘lib uyga qaytsam-da, o‘zimni qushdek yengil his qilardim.





**Nigina**  
**Naxshivanqulova**  
9-sinf o‘quvchisi

### **UMID CHIROG‘I**

Yurtda notinchlik. Hamma “urush”ni qar-g‘ab, u yoqdan bu yoqqa yugurib yuribdi. Onam ham nimalarnidir pichirlab, yig‘lamsiragancha hovlining bir burchagida qisinib o‘tiribdilar.

O‘sha paytlari to‘rt-besh yoshli bola edim. Dadam uydan chiqib ketayotganlarida onamlar-ning yum-yum yig‘lagani hamon esimda. Ora-dan bir necha yil o‘tdi. O‘sha zamonlarda amal-lab bir kunimizni o‘tkazsak, bizdan baxtli inson bo‘lmadi. Chunki o‘sha vaqtlar urush yillari edi. Onam ikkalamiz kechalari dadamni ko‘p esladik. Ayniqsa, onam uzun tunlar, hatto uxlamay yig‘lab

chiqqandi. Buni bildirmay derdi-yu, ammo men buning hammasini sezib turardim. Yana yillar ortidan yillar o‘tdi. Odatiy kunlarimizning birida mashina tovushi eshitildi va darvozamiz tagiga uch-to‘rt kishi bo‘lib bir odamni tashlab ketishdi. Men u odamdan hech ko‘zimni uzolmadim. Ust-boshi kir, yuz-qo‘llarini qovjirab ketgan ko‘p joylari qonga belangan odam zo‘rg‘a darvozamizga suyanib tik turdi. U qaltirayotgan oyoqlarida bir amallab turardi. Negadir meni ko‘rgandan beri ko‘zlaridan milt-milt yosh yumalardi. U qiynalibgina: “Onangni chaqir”, – dedi. Nima uchundir menda unga nisbatan zig‘ircha ham shubha uyg‘onmadi va onamni chaqirish uchun yugurdim. Onam haligi odamni ko‘rgach toshdek qotib qoldi va qo‘lidagi piyolasi yerga tushib chilparchin bo‘ldi. Keyin tezda o‘zlariga kelib olib, yig‘lab yubordilar va haligi odamni yetaklab uyga olib kirdilar. Boyagi odamning yuzlari qon bo‘lib, aniq ko‘rinmaganidanmi yoki dadam yonimdaligida juda yosh bo‘lganimdanmi o‘z dadamni taniy olmabman. Dadam yaralanganliklari uchun uyda davolandilar. Ammo shifokor bergan dorilar vaqtinchalik og‘riq qoldiruv-

chi dorilar edi, xolos. To'g'risi, bundan boshqa dori-darmonga pulimiz yetmas edi. Otamning esa ahvollari yaxshilanish o'rniga kundan kunga yomonlashib bordi. Oxir-oqibat olamdan ko'z yumdilar. Otamni so'nggi yo'lga kuzatgach, onam bilan Toshkentga yo'l oldik. Chunki bu yerdagi har bir narsa onamga otamni eslataverib ko'ngillarini ezib yuborardi. Bir yil Toshkentda yashadikmi yo'qmi, onam ham meni yolg'iz qoldirdilar. Onam ortidan rosa yig'ladim, ammo koshkiydi, ko'z yoshlarim evaziga onamni qaytarolsam. So'ng tog'am kelib meni yupatishga harakat qildilar. Keyin tog'amlarning uyida katta bo'ldim. Tog'amning bir odati bor edi: adabiyotga o'ch edilar. U kishi har haftada bir marta she'r ahli va she'r shinavandalari bilan she'riy kecha tashkil etardilar. Albatta, hamma vaqt men ham qatnashardim. Ularni tinglab bu she'rlardan ilhomlanib o'zim ham she'rlar bita boshladim. Keyinchalik bu ish mening hayotim mazmuniga aylanib qoldi. Hayotim davomida qayerda adashsam, mening umid chirog'im, ya'ni tog'am, yo'llarimni yoritib menga to'g'ri yo'lni ko'rsatdilar.



**Ruxshona  
Xoliqulova**

7-sinf o'quvchisi

### **DUNYO ISHLARI**

Dunyo ishlariga chetdan nazar sol,  
Kimdir otaga zor, kimdir onaga.  
Kimdir xor qiladi ota-onasin,  
Dunyo, shafqat qil u dili poraga.

Kimning oyog'i yo'q, kimningdir qo'li,  
Kimdir g'azab bilan o'tkazar kunin.  
Kimdir mehr berar bolajoniga,  
Kimdir olib borar yetimxonaga.

Ne savdolar kechmas odam boshidan,  
Odam boshi qattiq tog‘ning toshidan.  
Do‘stim, bo‘layotgan ishlarga bir boq,  
Bilsang, bular bari sen uchun saboq.

## **BAYROQ**

Tabiat, moviy osmon,  
Pok ko‘ngil tomirda qon.  
O‘n ikki yulduz chaqnoq,  
Viqorlisan, ey bayroq.

Kerakdirsan har yerda,  
Suyanchiqsan kurashda.  
Bo‘lg’in quyoshdek porloq,  
G‘ururlisan, ey bayroq.

Sen-la to‘kkan ko‘z yoshin,  
Najmiddin Kubro bobom.  
Bo‘lg’in viqorli sayroq,  
Savlatlisan, ey bayroq!

## **BOBOM NASIHATI**

Senga bir maslahat berayin, bolam,  
Ular bilan yorug‘ bu mulki olam,  
Ular bilan bordir saodat, baxt ham,  
Sen onang – jahoning qadriga yetgin,  
Sen otang – qo‘rg‘oning qadriga yetgin.

Yoshlikda o‘stirgan onang emasmi,  
Oq yuvib, oq taragan onang emasmi,  
Yiqilsang turg‘azgan otang emasmi?!  
Mehribon – otangni qadriga yetgin,  
Beozor – onangning qadriga yetgin.

Otasiz xor bo‘lib o‘sganlar qancha,  
Onaga zor bo‘lib o‘sganlar qancha.  
“Mehribonlik uyi”da o‘sganlar qancha,  
Sen onang – jahoning qadriga yetgin,  
Sen otang – qo‘rg‘oning qadriga yetgin.

## ONAJON

Oylar, yillar o'tsa ham,  
Kunlar, tunlar o'tsa ham,  
Ulg'ayganim bilsa ham,  
Onajonim erkalab,  
Meni suyib qucharlar.

Bo'y yetganim unutib,  
Ardoq bilan qo'l tutib,  
Ostonada yo'l kutib,  
Onajonim erkalab,  
Meni suyib qucharlar.

Ozor bermay dilimga,  
Gullar sohib yo'limga,  
Chorlar meni bilimga,  
Onajonim erkalab,  
Meni suyib qucharlar.

## IXLOS

Zo‘r shoirlar ichida,  
Qalbi nurlar ichida,  
So‘zi durlar ichida,  
Yaxshi ko‘rib o‘qiyman,  
Men Abdulla bobomni.

Takror-takror o‘qiyman,  
O‘qib she’rlar to‘qiyman,  
O‘z-o‘zimga men deyman,  
She’rin dilda saqlayman,  
Ishonchini oqlayman.

Yuragimning durlari,  
Yonar so‘zning nurlari,  
Mangu yashar she’rlari,  
Yaxshi ko‘rib o‘qiyman,  
Men Abdulla bobomni.



**Charos  
Komilova**

7-sinf o'quvchisi

### **ORZULAR SARI**

Tong shamoli mayin bir esib,  
Yuzim silab uyg'otar meni.  
Orzularim qo'limdan tutib,  
Yetaklaydi osmonlar sari.

Yulduzlarni ko'zlayman turib,  
Oftob misol chaqnayman go'yo.  
Maqsadimga yetishmoq uchun,  
Harakatdan tinmayman aslo.

## **BUVIM**

Mening qalbim chirogʻi,  
Buvijonim erurlar.  
Mehr soʻzin gulbogʻi,  
Buvijonim erurlar.

Ular nuri jahondir,  
Mening uchun dunyoda.  
Osmonim yoritguvchi,  
Quyosh kabi ziyoda.

Ne boʻlsa ham buvimni,  
Juda yaxshi koʻraman.  
Buvim borki, olamda,  
Doim kulib yuraman.

## **ORZU VA AZOB**

Hayot yaraldiki, dunyoda inson,  
Hamroh boʻlar unga orzu va azob.  
Yuksaklarga yetganin xayol surganda,  
Mehr ham tugʻilar, albat, oʻsha tob.

Ular yetaklaydi maqsadlar tomon,  
Go‘yoki to‘xtama degandek bo‘lib.  
Hayotda yashashni o‘rgatar bizga,  
Xuddi o‘sha tuyg‘u orzu va azob.

### **LOLA VA ONA YER**

Bahor kunlarida, esimda u payt,  
Dalaga chiqqandim, yomg‘ir paytida.  
Go‘zal malaklardek qirlarda lola,  
U yashardi she‘rim har bir baytida.

Men qizil lolani ko‘rib qolgandim,  
Shalabbo bo‘lgandi nozik yaprog‘i.  
Nagoh bilmay uni yulib olgandim,  
Qizarib ketdi shu on munis dudog‘i.

Tushunib yetgandim barchasini men,  
Lolaning onasi bu tuproq ekan.  
Bolani onadan ayiribman men,  
Qalbinga kirgandik edi bir tikan.



**Dilfuza  
Bo'ronova**

7-sinf o'quvchisi

### **ONA TILIM**

Chaqmoq bo'lib yorishdi birdan,  
Alisherning so'nmas ovozi.  
Ona tilim yaraldi undan,  
Dong taratdi buyuk parvozi.

So'zlashsalar ona tilimda,  
Go'zal navo tug'ilar asta.  
Ona tilim mehrini qo'shib,  
So'zdan yasay she'riy guldasta.

## KO‘NGIL

Orzularim panohi bo‘lib,  
Boshim uzra soya solgansan.  
Sadoqatga bo‘lib sen timsol,  
Mening bilan mangu qolgansan.

Pinhon saqlab tuyg‘ularimni,  
Intil deya qo‘llading meni.  
Ko‘ngil, sensan aziz hamrohim,  
Sodiq do‘st deb bilgayman seni.

## KUZ

Kuz qo‘shig‘i tillarang yaproq,  
Daraxt yig‘lar qalbida titroq.  
Daraxt dardin tinglaymiz, ammo  
Uning dardi bizlardan yiroq.

Ayni sahar esganda shamol,  
Qushlar topa olmaydi panoh.  
Silkitadi daraxt shoxlarin,  
Majnuntolning tarar sochlarin.

Quyosh qarar osmondan boqib,  
Tabassumi dilga xush yoqib.  
Mavjlan-ay, to‘lqinlan-ay suv,  
Ko‘ngillardan g‘uborlarni yuv.

Daraxt kiymish sog‘inchlardan to‘n,  
Yaproq uchun yig‘laydi beun.





**Marjona  
Norqulova**

2023-yilda bitirgan  
o‘quvchi

*UILYAM SHEKSPIRDAN*  
**SENGA QIYOS ETAYMI YOZNING  
BIR KUNIN?**

Senga qiyos etaymi yozning bir kunin?  
Lek, sen sevimliroq hamda vazminroq.  
May shamoli silkir gul kurtaklarin,  
Yoz faslining umri qisqadir, biroq.  
Falaklarda quyosh qizdirar goho  
Va tillarang yuzi benur bo‘larkan.  
Ha, chiroy tark etar go‘zallarni ham,  
Bu – hayot qonuni yoki daf’atan.





**Iroda  
Shodiyeva**

11-sinf o'quvchisi

**XOTIRA**

*(Erkin Vohidov she'ri)*

Do'stim,  
Xotirangdan qilma shikoyat,  
Yoddan chiqarmoq ham yaxshi odatdir.  
Yoddan chiqarmoq ham bir saodatdir,  
Unutmaslik dardi og'ir nihoyat.  
Vaqtida unutsang,  
Orom topar jon,  
Qalb ko'tarib yurmas ortiq jafoni.

Mana men,  
Yillarki, bir bevafo  
Esdan chiqarolmay kuyaman hamon.

### **MEMENTO**

My friend,  
Don't complain from your memento,  
Forgetting is good habit also.  
Forgetting is happiness too,  
Unforgettable is too hard sore.  
If you forget in time,  
Soul finds peaceful spot,  
Heart doesn't carry torment anymore.  
Here I am,  
For several years, still oppressed  
By unable to forget the betrayer.





**Nasiba  
Sayfullayeva**  
9-sinf o'quvchisi

### ***OSKAR UAYLD IJODIDAN***

### **BAXTIYOR SHAHZODA**

Shahar uzra Baxtiyor Shahzoda haykali bo'y cho'zib turardi. U to'liq oltin bilan qoplangan, ko'zlari esa yorqin moviy yoqutlardan iborat bo'lib, belida qizil yoqut yal-yal yonib osilgan-cha turardi. Hamma uni chiroyli va betakror hisoblardi.

Kichik bolalar yig'lashganda onalari: "Nega sen shu Baxtiyor Shahzodaga o'xshamaysan-a?" – deyishardi.

Bir g'amgin o'tib ketayotgan odam unga qarab: "Bu dunyoda bitta bo'lsa ham, baxtli inson borligidan, kimdir xursandligidan mamnunman", – debdi.

Tunlarning birida kichkina bir qushcha shahar bo'ylab kezib yurgandi. Boshqa barcha qushlar esa bu vaqtda Misrda edilar. Qushcha: "Bu tun qayerda tunab qolsam bo'larkin?" – deya o'ylay boshlabdi. Va shu on haykalga ko'zi tushibdi. "Shu yerda tunay qolaman", – deb o'ylabdi. "U anchagina baland, demak, havo birmuncha toza, sof bo'ladi".

Keyin u Shahzodaning oyoqlari o'rtasidan joy topibdi. "Endi mening oltin yotoqxonam bor", deb o'ylabdi. Lekin u boshini endi qanotlari ostiga olib yotmoqchi bo'lganida to'satdan bir tomchi suv ustiga tomibdi.

Qushcha yuqoriga qarab, "Judayam g'alati!" – deb o'ylabdi. "Osmonda bulut yo'q, ammo yomg'ir yog'yapti". Shunda keyingi tomchi ham yetib kelibdi. "Agar bu haykal ostidan quruq va issiq joy topmasam, bu yerda ortiq tura olmayman. Boshqa biror boshpana topishim zarur",

– deb o‘ylabdi. Va uchib ketishga qaror qilibdi. Endi boshini o‘rab turgan qanotlarini ko‘tarayotganida uchinchi tomchi ham kelib tomibdi. U tepaga qarabdi – Ah! Nimani ko‘ribdi deng?! O‘sha Baxtiyor Shahzodaning ko‘zlari yoshga to‘la edi. Ko‘z yoshlar uning oltin yuzidan sekin sirpanib tushayotgandi. Bu yuz oy nurida behad go‘zal ko‘rinardi va qushcha unga achina boshladi.

“Sen kimsan?” – so‘radi qushcha.

“Menmi, men Baxtiyor Shahzodaman”.

“Unda nega yig‘layapsan? Sening ko‘z yoshlaringdan men ham ho‘l bo‘lib ketdim”.

Men hayotligimda, mening ham boshqalarniki singari yuragim bor edi, – debdi Shahzoda. Lekin men o‘sha vaqtlarda ko‘z yoshlar nimaligini ham bilmasdim. Men g‘am-tashvishlardan holi saroyda yashardim. Kunduzlari do‘stlarim bilan chiroyli bog‘da o‘ynab-kulardik, oqshomlari esa vaqtimni raqs tushish bilan o‘tkazardim. Bog‘ni baland devor o‘rab turardi. Men esa bu devorning narigi tomonida nima borligini bilmas edim. Va men Baxtiyor Shahzoda edim, meni shunday atashardi. Men o‘zimning kichik olamimda bax-

tli edim. Mana, hozir esa aslida men bu dunyoni tark etganman va ular bu yerda men uchun haykal o‘rnatishdi. Hozirda esa shahardagi bor baxtsizliklarni ko‘ra olyapman. Mana, hozir mening yuragim arzon bir metall parchasidan iborat. Lekin, shu bechora yurak ham his qila oladi va men shuning uchun yig‘layapman.

“Oh, – dedi qushcha o‘ziga o‘zi, u faqatgina suratidangina oltindan iborat ekan, siyrati esa...”

“Bu yerdan uzoqda, – dedi Shahzoda past ovozda, kichik bir ko‘chada joylashgan g‘aribona kulba bor. Ochiq derazalar orqali stol qarshisida o‘tirgan ayolni ko‘ryapman. Uning yuzlari ozg‘in, qo‘llari esa mehnatda dag‘allashib, qizargan. U qirolicha xonimlarining biriga qasrdagi raqs oqshomi uchun libos tayyorlayapti. Ayolning kichkina bolasi esa xonaning bir burchagidagi yotog‘ida yotibdi. Bolakay betob va yig‘layapti, chunki faqat o‘sha ayolgina unga yordam berishi, suv keltirishi mumkin, xolos. Kichkina qushcha, mana shu qizil yoqutimni ularga olib bora olasanni? Men bu yerdan siljiy olmayman, axir”.

– Do‘stlarim meni Misrda kutishyapti, – dedi qush.

– Qushcha, jon qaldirg‘ochjon, – dedi Shahzoda, iltimos bir kecha men bilan qol va shu ishni men uchun qil. Bolakay yig‘layapti, onasi esa juda g‘amgin.

Baxtiyor Shahzoda juda xafa edi va qushning unga rahmi kela boshladi. “Bu yer judayam sovuq, – dedi u, – ammo bir kecha sening yoningda qolaman. Ertaga esa bu yoqutni eltib beraman”.

– Rahmat, qushcha, – dedi Shahzoda.

\* \* \*

Qushcha osilib turgan chiroyli yoqutni olib, shaharchadagi uy tomlari ustida parvoz qila boshladi. U saroy yonidan ham uchib o‘tdi va raqs ovozi eshitdi. Dilbar bir qiz o‘z oshig‘i bilan deraza yonida turardi. “Umid qilamanki, libosim keyingi haftagacha tayyor bo‘ladi, – dedi u. Bu ayollar juda dangasa ekan”.

Qush daryodan ham o‘tdi va uchishda davom etaverdi. Va nihoyat, u o‘sha kulbaga yetib keldi va ichkariga razm soldi. Bolakay o‘z yotog‘ida

yotardi. Onasi esa charchaganidan uxlab qolgan-di. U ichkariga uchib kirdi va yoqutni stol ustiga qo‘ydi. Keyin u karavotni bir aylanib o‘tdi va bolakayning yuzi atrofida ham qanot qoqqancha bir muddat turdi.

– Oh, – dedi bola, – mening yuzim endi unchalik qizimayapti. Menimcha, endi ancha yaxshi his qilyapman o‘zimni. Va uyquga ketdi. Keyin qushcha yana Shahzodaning yoniga qaytdi. “Bu g‘alati, – dedi qushcha. Havo juda sovuq, lekin men o‘zimni ancha iliq his qilyapman”.

– Bu sen yaxshilik qilganingdan, – dedi Shahzoda. Qushcha esa uxlab qoldi.

\* \* \*

Kun boshlangach qush yuz-qo‘lini yuvish uchun daryoga tushdi. Bir e’tiborli insonning unga ko‘zi tushib qoldi. “Noodatiy. Bu judayam g‘alati! – dedi u. Bu kabi qush, qishda, yana shu yerda-ya! Men buni yozib qo‘yishim lozim”. “Bugun tunda Misrga ketaman”, – o‘yladi qush.

Oy yana osmonga qaytgach, qushcha ham Baxtiyor Shahzodaning huzuriga qaytdi. Xo‘sh, men Misrda sen uchun biror nima qila olamanmi? – so‘radi u.

– Qushcha, jajji qushcha, – dedi Shahzoda, iltimos, yana bir kecha men bilan qolgin.

– Do‘stlarim kutishyapti axir, – javob berdi qush.

– Shu shahar bo‘ylab uzoqda, bir yosh yozuvchi uyining yuqori qavatida qog‘ozlar bilan qoplangan stol qarshisida o‘tiribdi. Uning yonida bir nechta so‘lib qolgan gullar ham turibdi. U hikoyasini tugatishga urinyapti. Biroq u shu qadar sovqotganki, hatto yoza olmayapti. Xonada uni isitish uchun olov yo‘q, buning ustiga u och va nimjon.

– Yaxshi, yana bir kecha sen bilan qolaman, – dedi ohistagina qaldirg‘och. Unga nima olib borishim kerak?

– Unga mening ko‘zlarimdan birini olib bora qol, – dedi u. Ular Hindistondan keltirilgan chiroyli, qimmatbaho toshlardan tayyorlangan. O‘sha yosh inson uni sotib biroz o‘tin va ovqat sotib oladi va keyin hikoyasini ham tugatadi.

– Qadrli shahzodam, sening ko‘zingni sug‘urib olish? – dedi qush. Men buni qila olmayman! – Va yig‘lashni boshladi.

– Qani, bo‘la qol. Bu ishni qilishing shart! – dedi Shahzoda.

Keyin qushcha Shahzodaning ko‘zini majburan oldi va o‘sha yozuvchining uyiga qarab uchib ketdi. U yerga kirish juda oson bo‘ldi, chunki shiftda teshik bor edi. Yozuvchi boshini qo‘llari bilan changallaganicha o‘tirardi, shu sababli qushning qanotlari ovozini ham eshitmadi. U boshini ko‘targach, qurib qolgan gullar ustidagi maftunkor moviy yoqutga ko‘zi tushdi.

“Kimgadir mening hikoyalarim ma’qul kelibdi! – deya quvonganicha baqirdi u. – Bu mening kitoblarimni o‘qigan allakimdandir sovg‘a. Endi men hikoyamni tugallashim mumkin!”

\* \* \*

Keyingi kun qush yana daryo yoniga uchib tushdi. U kemalar ustida ishlayotgan dengizchini bir muddat kuzatib turdi. “Men Misrga ketyapman!” qichqirdi u. Ammo uni hech kim eshitmadi.

Oy yana samoga balqqanida, u yana Shahzodaning yoniga qaytdi.

– Men bu yerga sen bilan xayrlashish uchun keldim, – dedi u.

– Jajji qushcha, qushchajon, iltimos yana bir kun men bilan qolgin, – dedi Shahzoda.

– Hozir qish, – javob qaytardi u. Tez orada qor ham yog‘a boshlaydi. Misrda esa hozir issiq, daraxtlar yam-yashil. Qadrli Shahzoda, seni tark etishim zarur. Men seni hech qachon unutmayman...

– Maydonda kichkina bir qizcha turibdi. U tuxum sotyapti. Uning tuxumlari yerga tushib ketdi va sindi. Uning uyiga olib boradigan puli yo‘q. Ammo u pulsiz borsa, otasi uni kaltaklaydi. Mening narigi ko‘zimni ol va qizchaga ber.

– Men sen bilan yana bir tun qolaman, – dedi qush, biroq ko‘zingni sug‘urib ola olmayman. Axir, sen keyin qanday ko‘rasan?!

– Buni qilishing shart. Bo‘laqol!

Keyin qushcha o‘sha moviy yoqutning ikkinchisini ham olishga majbur bo‘lib, uni olib pastga uchib tushibdi. U qizaloqning yoniga kelibdi va toshni uning qo‘llariga tutqazibdi.

“Bu qanday go‘zal yoqut bo‘lagi!” sevingancha qichqirdi qizaloq. U quvonchi ichiga sig‘may uyi tomon chopqillab ketdi.

Qush esa yana Shahzodaning yoniga qaytdi. “Endi sen ko‘ra olmaysan, – dedi u, shunday ekan men sen bilan birga qolaman”.

– Yo‘q, – dedi shahzoda, Sen Misrga yo‘l olishing kerak.

– Nima bo‘lganda ham men sen bilan qolaman, – takrorladi qushcha va u Shahzodaning oyoqlariga cho‘zilgancha uxlab qoldi.

Keyingi kun ham u Shahzodaning yonida qolib, unga o‘zi bilgan mamlakatlar-u orollar haqida hikoyalar so‘zlab berdi.

– Qadrdonim, qushcha, – dedi Shahzoda, sen menga turli o‘zgacha va g‘aroyib narsalar haqida aytib beryapsan, lekin azob chekayotgan har bir ayol-u erkakning, insonning holi hammasidan-da muhim. Shahar uzra parvoz qil, jajjiginam. So‘ng nimalarni ko‘rganingni menga so‘zlab berasan.

Qaldirg‘och ulkan shaharni ko‘zdan kechirishni boshladi. U o‘zlarining hashamatli uyla-

rida yeb-ichayotgan boylarni, darvoza tagida turgan kambag'al-nochorlarni ko'rdi. U qorong'u ko'chalar bo'ylab parvoz qilib, ochlikda qolgan, yuzlari sarg'ayib ketgan, mungli ko'zli bolalarni ko'rdi. Ko'prik tagida sovuqdan jon saqlash uchun bir-birining pinjiga tiqilib yotgan ikki bolakayni va ularning "Biz judayam ochmiz" deya ingrashlarini eshitdi. Ularga qarata "Bu yerda qola olmaysizlar!" deya o'shqirayotgan soqchini ham ko'rdi.

So'ng Shahzodaning yoniga qaytib, bularni birma-bir hikoya qilib berdi.

– Ko'rib turganingdek men oltin bilan qoplanganman, ularni bo'lak-bo'lak qilib sug'urib ol va mening nochor xalqimga tarqat, – dedi u.

Qushcha toki shahzoda tanasida butunlay oltin tugab, xunukkina haykalga aylanmaguncha tillalarni ketma-ket sug'urib chiqdi va bu oltinlarni bechora aholiga tarqatib, ularning quvonchdan porlagan chehralarining guvohi bo'ldi. Bolakaylar "Endi biz ham non yeymiz", deya sevingancha qichqirishardi.

\* \* \*

Mana, qor ham bo'ralay boshladi. Muz esa qorga ergashib, uylarning tomlarini egalladi. Odamlar esa o'zlarida bor issiq kiyimlarini kiyib olishdi.

Qushcha sovuqni yanada yaxshi his qila boshlagandi endi. Ammo u Shahzodani juda ham yaxshi ko'rganidan uni tark eta olmadi. Lekin, afsuski, uning joni uzilish arafasida edi.

– Xayr, qadrdonim! – dedi u, sendan bir bor bo'sa olsam maylimi?

– Misrga yo'l olganingdan behad mamnunman. Mening yonimda ancha qolib ketding. Qani bo'l, meni bir bora bo'lsa-da o'pib qo'y, axir, men seni yaxshi ko'raman-ku.

– Men Misrga emas, aksincha, o'sha o'lim uyiga ketyapman ya'ni bu dunyoni tashlab ketyapman, – dedi u. So'ng u Shahzodadan bo'sa oldi-yu, jon taslim qilganicha uning poyiga yiqildi. Shu on haykal siyratidan allaqanday ovoz yangrab ketdi. Qarsillagan ovoz eshitildi va o'sha metall yurak ikki qismga bo'linib ketdi.

Keyingi kun saharlab, o'z o'rniga ega bo'lgan, mashhur bir odam o'zining ikki do'sti bilan sha-

har bo‘ylab sayr qilayotgandi. U haykalga nazar soldi va “Bugun Baxtli Shahzoda unchalik yorqin va ko‘zga tashlanarli emas! – dedi u. Haligi qizil yoqut ham, uning qimmatbaho ko‘zlari ham yo‘qolibdi va u endi, hattoki, oltindan ham emas. U shunchaki bir faqir gadoyga o‘xshab qolibdi”.

“Ha rostdan ham!” deya do‘stlari ham unga qo‘shilishdi.

“Ana u yerda uning oyoqlari ostida qanaqadir o‘lik qush yotibdi, – dedi ofitser. Biz qushlar bu yerda o‘la olmasligi haqida yangi qaror, ya’ni buyruq qabul qilishimiz shart”.

Ular Shahzodaning haykalini joyidan olib, uni alangaga tashlab yuborishdi. Yorqin bu metalldan chiqqan tutun va is butun shaharni qoplab oldi.

“Bu g‘ayritabiiy hol, – dedi ishchilardan biri. Haykal tanasining markazidagi anavi siniq bo‘lak qattiq joylashgan ekan, u hali ham joyida turibdi. Biz uni olib tashlashimiz lozim”. Ular bu bo‘lakni o‘sha joni uzilgan qushcha bilan birga uloqtirib yuborishdi.

\* \* \*

Kunlardan bir kun Parvardigor o‘z xizmatchilarini “Menga shahardagi eng yaxshi ikki narsani keltiring” deya jo‘natibdi. Ular esa o‘sha yarim bo‘lak va jonsiz jajji qushni keltirishibdi.

“Ha, siz to‘g‘ri ish yuritdingiz. Ular rostdan ham eng afzali edilar, – dedi Yaratgan. Bu qushcha endi abadiy mening bog‘imda qolib, sayrashi mumkin va Baxtiyor Shahzoda esa mening oltin shahrimda qoladi”.





**Mushtariy  
Saidova**

9-sinf o'quvchisi

### ***OSKAR UAYLD IJODIDAN XUDBIN GIGANT***

Har kuni tushlikdan so'ng bolalar maktabdan kelib Gigantning bog'ida o'ynashardi. Bog' yashil maysali bo'lib, katta va yoqimli edi.

Bu yerda va u yerda o't ustida yulduzlarga o'xshagan go'zal gullar va bahorda pushti marvaridning nozik gullariga aylanib kuzda mo'l meva beradigan 12 ta shaftoli daraxti bor edi. Qushlar bu bog'da daraxtlarda kuylayotganida bolalar o'yinlarini to'xtatib qushlarni tinglashni aytishardi. Bir-birlariga : "Bu yerda qanday baxtiyormiz" – deyishardi.

Kunlardan bir kuni Gigant orqasiga qaytib keldi. U o'zining do'sti odamxo'r Kornishnikiga ketgan bo'lib, u bilan birga 7 yil qolgan edi. Oradan 7 yil o'tgach u o'z qasriga qaytishga qaror qildi. U qasriga yetib kelganida bolalar uning bog'ida o'ynab yurganlarini ko'rdi va u bolalarga "Bu yerda nima qilyapsizlar?" deb qo'pol tarzda baqirdi. Bolalar esa qo'rqib birdaniga qochib ketishdi. Gigant: "Mening bog'im bu faqat meniki. Buni hamma tushunishi kerak. Bu yerda mendan boshqa hech kim o'ynamaydi", – deb bog' atrofini baland devor bilan o'radi-da, peshtaxtaga shunday yozuvni osib qo'ydi:

Buzg'unchilar (bog'ga beso'roq kirganlar) javobgarlikka tortiladi.

Bechora bolalar hech qayerda o'ynay olmay qolishdi. Ular ko'chada o'ynashga harakat qilib ko'rdilar, lekin ko'cha chang va toshlar bilan to'laligi bolalarga yoqmasdi. Ularning darslari tugagach baland devor ostiga kelib, uning atrofida aylanib tentirab yurishardi. Bir-birlari bilan ichkaridagi chiroyli bog' haqida suhbatlashib u yerda qanday baxtiyor bo'lganlarini eslashardi.

Bahor kelgach barcha qishloqlarda daraxtlar gulladi, qushlar uchib kela boshladi. Faqatgina xudbin Gigantning bog‘ida haliyam qish edi. Bolalar yo‘qligi sababli qushlar sayramay, daraxtlar gullamay qo‘ydi. Birgina chiroyli gul yerdan boshini ko‘tarib peshtaxtadagi yozuvni ko‘rib, bolalar uchun achinib, yana yer ostiga qaytib uyquga ketdi. Bundan xursand bo‘lganlar Qor va Ayozi edi.

Ular bahor bu yerni unutibdi, biz bu yerda abadiy qolamiz, deb rosa xursand bo‘lishdi. Qor o‘zining ajoyib oq plashi bilan butun yerni qoplab oldi. Ayozi esa daraxtlarni kumushrangga aylantirib qo‘ydi. Keyin ular shimol shamolini ham bu yerga taklif qilib o‘zlari bilan birga qolishini so‘radilar. Shundan so‘ng shimol shamoli ham ularga qo‘shildi. U o‘zining mo‘ynasiga o‘rangan bo‘lib, kun bo‘yi bog‘da o‘kirib mo‘ri quvurlarini puflab yurdi. Va u “Bu yer judayam ajoyib joy ekan, bu yerga biz do‘lni ham chaqirishimiz kerak”, – dedi. Shunday qilib do‘l ham keldi. U har kuni 3 soat mobaynida qal‘aning tomidan g‘irt-g‘ildon bo‘lib shiftlarni ancha qismini sindirib yubordi. So‘ng imkoni boricha tezroq bog‘ni

aylanib chiqardi. U kulrang kiyimda bo‘lib, nafa-si muzdek edi.

“Bahor nega bunchalik kechikayotganini tushuna olmayapman, umid qilamanki, tez orada ob-havo o‘zgaradi”, – dedi xudbin Gigant oppoq va sovuq bog‘iga qarab qo‘yib. Ammo bahor ham, yoz ham kelmadi. Kuz har bir bog‘ga o‘zining oltin mevalaridan berdi, birgina xudbin Gigantnikidan tashqari. Kuz: “U judayam xudbin, shuning uchun bu yerda doim qish, shimol shamoli, do‘l bo‘lib ular bu yerdagi daraxtlarda raqsh tushib yuradi”, – deb qo‘ydi.

Bir kuni Gigant uyg‘onsa, judayam yoqimli musiqani eshitib qoldi. Bu ovoz uning quloqlariga judayam yoqimli tuyuldi va bu ovozni yonidan o‘tayotgan qirol musiqachilaridan biri bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Darhaqiqat, bu uning derazasi tashqarisida qo‘shiq kuylayotgan kichkinagina linnet qushi edi. Lekin u o‘zining bog‘ida qushning qo‘shiq kuylaganini eshitmaganiga shunchalik vaqt o‘tdiki, bu unga dunyodagi eng go‘zal musiqadek tuyuldi.

Shunda Do‘l uning boshi uzra raqs tushishni, shimol shamoli esa guvullashni to‘xtatdi va atrofdan xushbo‘y hid taralib ketdi.

– U nimani ko‘rdi?

U eng ajoyib manzarani ko‘rdi. Bolalar devordagi kichik teshiklar orqali bog‘ga kirib daraxtlarning shoxida o‘tirishardi. Har bir daraxtda u kichkina bolalarni ko‘rdi. Daraxtlar bolalar qaytganidan shunchalik xursand bo‘ldilarki, kurtak yozib gulladilar va shoxlarini ohistalik bilan bolalar boshi uzra silkitishardi. Qushlar xursandchilik bilan chug‘urlashar, gullar yashil maysalardan bosh ko‘tarib kulib turardilar. Bu judayam yoqimli manzara edi, faqat bir burchakda haliyam qish edi. Bu bog‘ning eng uzoq burchagi bo‘lib, unda judayam mitti bolakay turardi. U shunchalik kichik ediki, daraxt shoxlariga qo‘li yetmasdi. Uning atrofida achchiq-achchiq yig‘lardi. Bechora daraxt hali ham sovuq va qirov bilan qoplangan edi. Uning tepasida esa shimol shamoli esib, gumburlardi. “Yuqoriga chiq”, – deb daraxt shoxlarini cho‘zdi, ammo bolakay judayam kichiklik qilardi. Bularni ko‘rib Gigant-

ning yuragi erib ketdi. “Qanday xudbin bo‘lgan ekanman. Hozir men nega bahor kelmagani- ni tushundim. Men hozir kichkintoy bolakayni daraxtning shoxiga olib qo‘yaman, bog‘ning devorini qulataman. Mening bog‘im abadiy bolalar maydonchasi bo‘lib qoladi”, – dedi u. U qilgan ishlaridan afsuslandi.

Shunday qilib u zinadan ohistalik bilan tushib bog‘ga kirdi. Ammo bolalar uni ko‘rishlari zahoti undan qo‘rqib qochib ketdilar. Faqat bittagina kichkintoy bolakay qochmagan edi. U Gigant kelayotganini ko‘rmagandi. Uning ko‘zlari yosh bilan to‘la edi. Gigant uni ohistalik bilan ko‘tarib daraxtga qo‘yib qo‘ydi. Daraxt birdaniga gullab ketdi. Qushlar kelib kuylay boshladilar. Bolakay esa ikki qo‘lini cho‘zib Gigantning bo‘yniga tashladi va o‘pdi. Boshqa bolalar Gigantning boshqa yovuzlik qilmasligini ko‘rib qaytib keldilar. Ular bilan birga bahor ham qaytgan edi. Gigant katta bolta bilan yopilgan eshikni qulatib bolalarga: “Bu endi sizning bog‘ingiz”, – dedi.

Odamlar soat 12 da bozorga ketayotganlarida Gigantni bog‘da bolalar bilan o‘ynayotganini ko‘rdilar.

Bolalar kun bo‘yi bog‘da o‘ynab kechki payt Gigantning oldiga kelib xayrlashishdi. Gigant ulardan o‘zlarining kichkina hamrohi qayerdaligini so‘radi. Chunki Gigant kichkintoy bola uni o‘pgani uchun juda yaxshi ko‘rib qolgan edi. Bolalar esa uni ketganini va bilmasliklarini aytishganda Gigant ularga : “Unga ishonch hosil qilishini va ertaga kelishini ayting”, – dedi. Bolalar u bolani avval ko‘rmaganliklarini aytishdi. Gigant buni eshitib juda xafa bo‘ldi.

Har kuni tushdan so‘ng bolalar bog‘ga kelib Gigant bilan o‘ynaydigan bo‘lishdi. Ammo Gigant kichkina bolakayni boshqa ko‘rmadi.

Gigant barcha bolalarga mehribon edi, lekin u o‘zining birinchi kichik do‘stini o‘ylar va u haqida tez-tez gapirardi. “Men uni qanday ko‘rsam ekan”, – derdi u.

Yillar o‘tib Gigant qarib, juda ham ojiz bo‘lib qoldi. U boshqa o‘ynay olmas, katta kresloda o‘tirib, bolalar o‘yinini kuzatar va bog‘iga qoyil qolardi. U “Mening go‘zal gullarim ko‘p, lekin bolalar eng go‘zal gullardir”, – deb qo‘yardi.

Qish kuni ertalab u kiyinayotganida derazaga qaradi. U hozir qishni yomon ko'rmay edi. Chunki bahor uxlayotgani va gullarning dam olishini bilardi. To'satdan ko'zlarini ishqalab hayrat bilan qarab qoldi. Albatta, bu ajoyib manzara edi. Bog'ning eng chekka burchagida go'zal oq gullar bilan qoplangan daraxt bor edi. Uning shoxlari oltin rangda bo'lib, kumush mevalari osilib turardi va daraxt ostida u yaxshi ko'rgan bolakay turardi. Gigant xursandchilik bilan yugurib chiqdi. U shosha-pisha bolaga yaqinlashdi va dedi:

– Kim seni jarohatladi? Ayt-chi, men uni katta qilichim bilan o'ldiraman.

– Yo'q bu sevgi yaralari, – dedi bolakay.

– Sen kimsan? – deb Gigant g'alati qo'rquv bilan tiz cho'kdi.

Bola Gigantga qarab jilmaydi va:

– Menga bir marta bog'ingda o'ynashga ruxsat ber. So'ng esa sen bugun men bilan mening bog'imga, Jannatga ketasan, – dedi.

Tushda bolalar bog'ga o'ynagani kelishgani-da Gigantni oppoq gullar bilan qoplangan holda mangu uyquga ketganini ko'rishdi.



**Fayoza  
Qudratova**

**9-sinf o'quvchisi**

**O'GENRIDAN  
SO'NGGI YAPROQ**

Vashington maydonining g'arbidagi kichik bir dahada ko'chalar chalkashib ketgan va "tor ko'chalar" nomini olgan yo'lakchalarga bo'linib ketgan edi. Bu ko'chalar turlicha burchaklar hamda egri chiziqlar hosil qilgandi. Bir paytlar bir rassom shu ko'chaning ajib xususiyatini kashf qilgan. Do'kondan kelgan pul yig'uvchi bo'yoq, qog'oz va bo'z uchun to'lov qog'ozlarini qo'lib ushlagancha bir sent ham ololmay qaytib ketayotganligini ko'rib qolishini bir tasavvur qilib ko'ring!

Shaharning bu qismi Grinvich qishlog‘i deb ataladi. Tez orada Grinvich qishlog‘iga rassomlar kelishdi. Bu yerda ular xonalarini topdilar. Ular yaxshi yorug‘lik hamda arzon narxlarni yoqtiradilar.

Baland bo‘lmagan uch qavatli binoning yuqori qavatida Syu va Jonsilar ustaxonalarida yashardi. Bu ayollardan biri Meyndan, ikkinchisi Kaliforniyadan kelgan edi. Ular sakkizinchi ko‘chadagi restoranda uchrashishgan. U yerda ular bir xil san‘atni, bir xil ovqatni va bir xil kiyimni yoqtirishlarini aniqladilar. Shuning uchun ular birga yashashga va ishlashga qaror qilishdi.

Bu bahor faslida edi.

Qish yaqinlashganda, Ginvich qishlog‘iga sovuq bir notanish odam keldi. Uni hech kim ko‘rmagandi. U zo‘rg‘a atrofni aylanardi, barmoqlari esa muzlagandi. U yomon kasal edi. Shifokorlar uni Zotiljam deb atashardi. Shaharning sharqiy tomonida u ko‘p odamlarga tegib o‘tib, shoshildi, lekin Grinvich qishlog‘ining tor ko‘chalarida u tez harakat qilmadi. Janob Pnevmoniya umuman olganda yaxshi qariya emasdi.

O‘sha keksa janob kaliforniyalik bir zaif ayolni ranjitmadi, ammo Janob Pnevmoniya sovuq barmoqlarini Jonsiga tekkizdi. U karavotida deyarli qimirlamasdan yotar, derazadan o‘zining yonidagi uy devoriga qaradi.

Bir kun ertalab band bo‘lgan shifokor zalda ya’ni Jonsi eshitmaydigan joyda Syu bilan gaplashdi. “Uning imkoniyati juda kam...”, – dedi u. “Uning imkoniyati bor agar u yashashni xohlasa... Agar odamlar yashashni xohlamasa, men ular uchun ko‘p narsa qila olmayman. Kichkina xonimingiz tuzalib ketmaslikka qaror qildi. Uni bezovta qiladigan muammo bormi..?”

“U har doim Italiyaga borib, Neapol ko‘rfazining rasmini chizishni xohlardi”, – dedi Syu. “Chizish..! Faqat chizish emas. Xafa bo‘lishga arziydigan narsa bormi? Yigitimi..?”

“Yigiti?” – dedi Syu. Yo‘q, doktor! Bunday emas..!”

“Bu, balki, bir darmonsizlik bo‘lishi ham mumkin, – dedi shifokor. Qo‘limdan kelgan, bilgan hamma narsani qilaman, ammo kasal odam o‘lishini his qila boshlasa, mening ishimning

yarmi befoyda. U bilan turli xil narsalar haqida gaplashing. Masalan, yangi qishki kiyimlar haqida gaplashing. Agar u kelajakka yana qiziqqa boshlasa, uning imkoniyatlari ancha yaxshiroq bo'lardi".

Shifokor ketganidan so'ng Syu yig'lash uchun ishxonasiga kirdi. Keyin u Jonsining xonasiga kirdi. U rasm materiallaridan bir nechtasini olib, qo'shiq aytishni boshladi. Jonsi u yerda juda tinch va horg'in yotardi. Uning ko'zlari esa deraza tomonga qadalgandek edi. Syu bir nechta qalam hamda mo'yqalamlarni olib kuylashni boshladi. Birozdan so'ng esa Syu Jonsini uxlab yotibdi deb o'ylab, kuylashni to'xtatdi.

Syu monokl taqqan bashang kiyimdagi aydaholik chavandoz yigit suratini chizayotgan vaqtda qulog'iga shivirlagan bir ovoz eshitildi, so'ngra bu ovoz bir necha bor takrorlandi. U darhol Jonsining yotog'i tomon shoshdi. Jonsining ko'zlari katta ochiq edi. U nigohini derazadan tashqariga qadagan ko'yi sanardi – teskari tartibda sanardi.

– O'n ikki, – dedi u va sal o'tmay, – o'n bir, so'ngra – o'n, to'qqiz, undan so'ng esa: – sakkiz, yetti, – deb sanardi u deyarli bir maromda.

U xavotir olgancha derazaga qaradi. U yerda sanaydigan nima bor? Mahzun koʻrinishdagi boʻm-boʻsh hovli va yigirma qadamcha naridagi gʻishtli binoning tep-tekis devoridan boshqa hech narsa koʻzga tashlanmasdi. Izlaridan chiriy boshlagan, egri-bugri qari pechakgul gʻisht devorning yarmigacha chirmashib ketgandi. Kuzning sovuq nafasi uning barglarini ayovsiz toʻkib yuborgan, deyarli yalangʻoch boʻlib qolgan novdalari esa uqalanib ketayotgan gʻisht devorga jon holatda tirmashib turardi.

– Nima haqida gapiryapsan, dugonajon? – soʻradi Syu.

– Olti, – dedi Jonsi pichirlab. – Ular endi tezroq toʻkila boshladi. Uch kun avval ular yuztacha edi. Sanayverib boshim ogʻrib ketardi. Endi esa osonroq boʻlib qoldi. Ana, yana bittasi toʻkildi. Hozir atigi beshtagina qoldi.

– Beshta nima, azizim? Doʻsting Syuga aytsang-chi!

– Barglar. Pechakgul yaproqlari. Ularning soʻngisi toʻkilganda, men ham hayot bilan vido-lashaman. Men buni uch kundan beri sezib kel-yapman. Shifokor senga hech narsa demadimi?

– Bunday bo‘lmag‘ur gapni birinchi bor eshittirim! – deb javob qaytardi Syu shikoyatomuz ohangda, o‘zini dugonasining gaplarini e‘tiborga olmagan qilib ko‘rsatib.

– Qari pechakgul yaproqlarining tuzalib ketishingga nima aloqasi bor? Axir sen u pechakgulni juda yoqtirasan-ku, quloqsiz qizaloq! Bo‘ldi, tentaklikni bas qil! Axir bugun ertalab doktor sening tez kunda tuzalib ketishingni ...o‘ndan ...hozir, eslab ko‘ray ...ha, o‘ndan to‘qqiz ehtimol deb aytgandi. Bu esa har birimiz Nyu Yorkda tramvayda ketayotib yoki yangi qurilayotgan uyning yonidan o‘tayotib duchor bo‘lishimiz mumkin bo‘lgan xavf-xatar bilan baravar degani-ku! Sho‘rvadan ozgina ichib olgin, o‘rtoqjoning Syuga esa ruxsat ber, u chizayotgan suratini tugatsin va uni muharrirga pullab, kasal qizalog‘iga portveyn sharobi, o‘ziga esa yumshoqqina cho‘chqa kotletidan olib kelsin. – Endi sharob olishingga hojat yo‘q, – dedi Jonsi ko‘zlarini derazadan uzmasdan. – Ana, yana bittasi tushyapti. Bo‘ldi, boshqa sho‘rva ichgim kelmayapti. Hozir ular to‘rttagina qoldi. Qorong‘i tushmasidan oxirgi-

sining tushishini ko‘rmoqchiman. So‘ngra men ham bu yorug‘ olamni tark etaman.

– Jonsi, go‘zalim, – dedi Syu u tomon egilarkan, – menga ko‘zlaringni yumib derazaga qaramay turishga so‘z berasanmi? Men ungacha ishimni tugatib olardim. Suratlarimni ertaga topshirishim kerak. Menga yorug‘lik zarur, bo‘lmasa pardani tushirib qo‘yardim.

– Boshqa xonada chizsang bo‘lmaydimi? – so‘radi Jonsi sovuq ohangda.

– Oldingda qolsam degandim. Undan tashqari, shu ahmoqona pechakgul barglariga qarashingni xohlamayman.

– Tugatishing bilan menga ayt, – dedi Jonsi ko‘zlarini yumayotib. U mum haykal kabi rangi siniq va harakatsiz yotardi. – Chunki so‘nggi yaproqning tushishini ko‘rmoqchiman. Men kutishdan charchadim. O‘ylayverib ham charchadim. Meni bu dunyoga bog‘lab turgan barcha rishtalardan xalos bo‘lib, o‘sha hayotdan to‘ygan bechora yaproqlar misoli havoda uchgan g‘oyib bo‘lishni xohlayman.

– Uxlashga harakat qil, – dedi Syu. – Bermanni chaqirib chiqishim kerak. Unga qarab

umrini yolgʻizlikda oʻtkazuvchi konchi suratini chizmoqchiman. Bir daqiqa oʻtmay qaytaman. Kelgunumcha joyingda qimirlamay yotgin.

Qariya Berman pastki qavatda yashaydigan bir rassom edi. U oltmishdan oshgan, Mikelanjelo yasagan Muso haykaliniki kabi jingalak soqoli ixchamgina yarashib turardi. Bermanning sanʼat sohasida omadi chopmadi. U qirq yil moʻyqalam surgan, ammo hali-hanuz unga ilhom parisining etagidan tutib qolish nasib etmagandi. Har safar bu musavvir shoh asar yaratmoq uchun shaylanadi, lekin hozirgacha bu ishni boshlay olmagan ham edi. Mana, bir necha yildirki, baʼzan eʼlonlar uchun tirikchilik yoʻlidagi oʻlda-joʻlda ishlangan rasmlarini aytmasak, arzirli bir ish qilmagan ham edi. U professionalga qurbi yetmagan mahalliy yosh rassomlar uchun tirik manekenlik qilib kun koʻrardi. Ichkilikka mukkasidan ketgan, shunga qaramasdan hali ham yaratajak shoh asari haqida gapirishdan tinmasdi. Umuman olganda esa, koʻngli boʻsh odamlarni jini suymaydigan, oʻzini yuqorida yashovchi ikki rassom qizni himoya qiluvchi qoʻriqchi it deb hisoblaydigan badjahl bir chol edi.

Syu Bermanni pastki qavatdagi xira yoritilgan hujrasidan topganida, undan qora archa mevasining hidi anqib turardi. Xonaning bir burchagidagi molbertda esa yigirma besh yildan buyon shoh asarning ilk chizgilarini intiqlik bilan kutayotgan bo‘m-bo‘sh mato yotardi. Syu unga Jonsining xayolidagilarni, qizning o‘zi ham yaproq misoli yengil va nimjon bo‘lib qolgani-ni, hayot rishtalari noziklashib qolib, shamoldagi yaproq kabi uchib ketishidan xavotirda ekanini aytib berdi. Qizargan ko‘zlari yoshlana boshlagan Berman bunday xayolparastlikdan g‘ashi ke-lib baqirib yubordi.

– Nima? – deb o‘shqirdi u. – Hech jahonda la’nati bir pechakgul yaproqlari to‘kilgani uchun ham odam o‘ladimi? Bunaqasini sira eshitmagan ekanman. Yo‘q, sening o‘sha ahmoq konchi surating uchun manekenlik qilishni xohlamayman! Qanday qilib bunday bo‘lmag‘ur fikrlarni uning miyasiga kelishiga indamay qarab turibsən? E-e-eh Jonsi xonim.

– U betob bo‘lib ancha zaiflashib qoldi, – dedi Syu, – isitmasi balandligidan alahsirab har xil bema’ni narsalar haqida aljirayapti. Mayli,

janob Berman, agar menga manekenlik qilishni istamayotgan bo'lsangiz, sizni ovora qilib o'tirmayman. Ammo nima bo'lganda ham siz jirkanch qari ... qari ezma chol ekansiz!

– Eh, baribir zaifaligingga borasan-da! – qichqirdi Berman. – Manekenlik qilmayman deb senga kim aytdi? Bo'laqol tezroq! Sen bilan boraman. Axir yarim soatdan beri senga shuni uqtiryapman-ku! Xudoyim-ey! Bu yer Jonsi xonimdek qiz uchun kasal bo'lib yotadigan joy emas. Bir kun kelib men, albatta, shoh asarimni chizaman, keyin biz bu yerdan ko'chib ketamiz. Albatta, bo'lmasam-chi!

Ular yuqoriga chiqishganda Jonsi uxlab qolgan ekan. Syu pardani deraza tokchasiga tushirib, Bermanga boshqa xonaga o'tishga ishora qildi. U yerda ular derazadan pechakgulga xavotir bilan qarashdi. So'ng bir lahza lom-mim demay bir-birlariga tikilib qolishdi. Tashqarida yomg'ir aralash qor to'xtovsiz yog'ardi. Berman o'ngib ketgan ko'ylagida yolg'iz yashovchi konchi o'laroq qoyatosh o'rnini bosuvchi to'ntarilgan qozon ustiga o'tirdi.

Ertasi kuni ertalab Syu bir soatlik derazani yopib turgan yashil pardaga qarab turardi.

– Pardani ko‘tar, ko‘rishni xohlayman, – deb shivirladi u buyruq ohangida.

Syu horg‘in holda uning aytganini bajardi.

Ammo ne ajabki, tun bo‘yi sharros quygan yomg‘ir va esgan kuchli shamolga qaramay g‘isht devorda hali ham bitta yaproq ko‘rinib turardi! U pechakgul yaproqlarining so‘nggisi edi. Poyaga yaqin joylari hali-hamon to‘q yashil, arrasimon qirralari esa qurib sarg‘aya boshlagan bu yaproq yigirma futcha balandlikda matonat bilan o‘z novdasiga osilib olgandi.

– Bu so‘nggisi, – dedi Jonsi. – Uni kecha kechqurun, albatta, to‘kiladi deb o‘ylagandim. Shamolni eshitdim. U bugun to‘kiladi, shunda men ham o‘laman.

– Nafasingni yel uchirsin! – dedi Syu, so‘lg‘in yuzini yostiq tomon burarkan. – O‘zingga joning achimasa, menga rahming kelsin! Mening holim ne kechadi? Ammo Jonsi javob qaytarmadi. Inson qalbi sirli, olis sayohatga hozirlik qilayotgan bu olamdagi barcha narsaga befarq bo‘lib qolar-

kan. Jonsini do'stlik va hayotga bog'lab turgan rishtalar birma-bir uzilarkan, u o'sha xayoli ta'siriga tobora berilib ketayotganday edi.

Yana bir kun o'tdi, g'ira-shira bo'lishiga qaramasdan hali-hamon novdasida osilib turgan o'sha yolg'iz yaproq ko'ziga tashlanib turardi. Qorong'i tushishi bilanoq shimoldan esayotgan shamolning yana jilovi bo'shadi, bu payt yomg'ir ham tinmay derazaga urilib, past golland tar-novlaridan chakillab pastga oqardi.

Tong otishi bilanoq bag'ritosh Jonsi yana pardani ko'tarishni buyurdi.

Pechakgul bargi hali ham o'z joyida edi.

Jonsi unga uzoq vaqt tikilib yotdi. So'ngra gaz plitasida tovuq sho'rvasini aralashtirayotgan Syuni yoniga chorladi.

– Qanchalik zaif bo'lgan ekanman-a, Syuzi, – dedi Jonsi. – U so'nggi yaproq ham qanchalik zaiflik qilayotganimni ko'rsatish uchun to'kilmay turishga kuch topa oldi. O'ziga o'lim tilash katta gunoh. Bunday niyat qilganim uchun o'zimdan o'zim uyalib ketyapman. Hozir menga ozgina tovuq sho'rvadan bergin, yana portveynli sut-

dan ham olib kel... Yo‘q, shoshma! Avval oynani keltir, yonimga yostiqlik ham to‘shab qo‘y, o‘tirib ovqat pishirishingni ko‘rmoqchiman.

Bir soatdan keyin u dedi:

– Umid qilamanki, bir kun kelib men, albatta, Neapolitan ko‘rfazining rangli suratini chizaman.

Tushlikdan keyin shifokor keldi, u ketayotganda esa Syu bir narsani bahona qilib uning orqasidan dahlizga chiqdi.

– Imkoniyatlar barobar, – dedi shifokor Syuning nozik, titrayotgan qo‘llarini siqib qo‘yarkan. – Yaxshi qarov bilan kasallikni, albatta, yengasizlar. Hozir esa men pastki qavatdagi bemorni ko‘rishim kerak. Uning ismi Berman ekan. Menimcha, rassom bo‘lsa kerak. U ham zotiljamga chalinibdi. Keksayib quvvatdan qolgan, kasali esa juda og‘ir. Hech qanday umid qolmagan, baribir kasalxonaga yuborsak tinchroq yotadi.

Ertasi kun shifokor Syuga dedi:

– Uning hayoti xavf ostida emas. Sizlar yengdinglar. Unga yaxshi ovqat berib g‘amxo‘rlik ko‘rsatilsa, tez kunda oyoqqa turib ketadi.

O'sha oqshom Syu to'qiyotgan to'q moviy va umuman keraksiz junli sharfini tutgancha Jonsining yotog'iga keldi, bir qo'li bilan qizni bag'riga bosdi.

– Senga bir gap aytishim kerak, mening jajjigina quyoncham, – dedi u. – Bugun janob Berman kasalxonada zotiljamdan vafot etibdi. U atigi ikki kun betob bo'lib yotibdi. Qorovul uni birinchi kuni ertalab pastdagi xonasida og'riqdan nochor ahvolda ko'rgan ekan. Oyoq kiyimi va ust-boshlari jiqqa ho'l va sovuqdan muzlab ketgan ekan. O'sha mash'um kechada qayerda bo'lganligini tasavvurlariga ham sig'dira olishmabdi. Undan keyin ular hali ham o'chmagan fonar, joyidan qo'zg'atilgan narvon, bir nechta sochilib yotgan mo'yqalam bilan birga yashil va sariq bo'yoqlarni topishibdi – derazadan tashqariga qaragin, qadrdonim, devordagi so'nggi yaproqqa bir nazar tashlagin. U nega shamolda tebranmayotganiga hech e'tibor berdingmi? Eh, jonginam, bu Berman yaratgan shoh asar – uni u o'sha so'nggi yaproq to'kilgan kechada chizgan ekan!

## O‘QUVCHILAR FIKRLARI

Dastur davomida biz Farg‘ona viloyatidagi Erkin Vohidov ijod maktabida bo‘ldik. Maktab menda ijobiy taassurot qoldirdi. O‘quvchilari, tengdoshlarimiz, maktab xodimlari hammasi bizni xushmuomalalik bilan kutib olishdi. Biz ko‘p tajribalar orttirdik, fikr almashdik. Maktabda ijod nafasi ufurib turar ekan. Dars o‘tish metodikasi deyarli bizniki bilan o‘xshash. Havo biroz sovuq bo‘lganligini hisobga olmasak, barchasi ajoyib. Dastur davomida Farg‘onaning ko‘plab joylariga sayohat qildik. Shu jumladan, “Uvaysiy” uy-muzeyiga ham tashrif buyurdik. Ijodiy kechada biz ham faol qatnashdik va o‘z ijodimizdan tortiq qildik. Ko‘plab do‘stlar orttirdik.

Dastur dunyoqarashimiz yanada keng bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Sayohat xotiramizdan o‘chmas joy oldi. Dastlab, biz Sirdaryo viloyatida joylashgan Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabiga borganimizda yangi muhitga moslasha olmaymiz, deb qo‘rqan edik. Biroq borganimizdan so‘ng maktab ma‘muriyati, tengdosh-

larimiz bizni mehmondo‘stlik bilan kutib olishdi. Birinchi kundanoq hamma bilan do‘stlashib keta oldik. Darsda bor bilimimizni ko‘rsatishga harakat qildik va ko‘rsata oldik. Borganimizda “Til bayrami” yaqinlashgani sababli tadbirda ham ishtirok etdik. She’rlar aytdik, hatto aktyorlik mahoratimizni ishga solib Abdulla Oripov qalamiga mansub “Jannatga yo‘l” she’riy drama-sidan parcha ham qo‘yib berdik. Dastur davomda bizni Guliston shahrining turli joylariga sayohat qildirishdi. U yerdan do‘stlarimizga esdalik sovg‘alar oldik. Maktabdan ketgunimizcha bizga esdalik kitoblar va diplom sovg‘a qilishdi.

### ***Shahrizoda Yashinxo‘ja***

Bizning Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahridagi Erkin Vohidov ijod maktabiga sayohatimiz ajoyib bo‘ldi. Qiziqarli darslar, mahoratli o‘qituvchilarning o‘zgacha dars o‘tish mahorati, sinfdoshlarimiz bilan birga har xil madaniy-ma’rifiy tadbirlardagi ishtirokimiz orqali boy taassurotlarga ega bo‘ldik. Tengqurlarimiz bilan ijodlari,

bilimlari, mahoratlari haqida tanishib, tajriba orttirdik. Ijodiy kechalarda, she'riy asarlar tahlili bo'yicha bahslarda faol qatnashdik. Bundan tashqari, dars mashg'ulotlaridan keyin Marg'ilon shahridagi "Kabutar" mozori, "Uvaysiy" uy-muzeyi, Erkin Vohidov xotira muzeyiga tashrif buyurdik. Esdalik uchun suratga tushib, oila a'zolarimiz uchun turli xil sovg'alar xarid qildik. Darslardan keyingi ijodiy to'garaklarga faol qatnashdik. Dars soatlarida biz ham o'z iste'dodlarimizni namoyon etdik. Erkin Vohidov maktabida nashr qilinadigan "O'zbekim" jurnaliga ijodiy ishlarimizdan namunalar berdik. "O'zbekim" radiosidagi ishtirokimiz ham o'zgacha taassurot qoldirdi. Xulosa qilib aytganda, sayohat har bir o'quvchining qalbiga o'chmas, yorqin xotiralar bilan muhrlandi. Shu jumladan, menda ham.

***Guljahon Sadinova***

Biz 9-sinf o'quvchilari "O'quvchi almasinish" dasturi orqali Abdulla Oripov nomli ijod maktabidan Erkin Vohidov nomli ijod maktabi-

ga bordik. Erkin Vohidov ijod maktabi jamoasi bizni vokzalda kutib olishdi. O‘z shaharlarini, maktablarini va farg‘onaliklarni tanishtirishdi. To‘g‘risini aytadigan bo‘lsak, boshida ozgina hadiksiragan edim, lekin keyinchalik ular bilan tezda chiqishib ketdik. Ular bizni samimiy qabul qilishdi, bizga o‘z o‘quvchilaridek muomala qilishdi. Bir hafta davomida ular bizni o‘zlarining turli xil dasturlari, ijodlari, Farg‘ona madaniyati va tarixi bilan tanishtirishdi. Va eng asosiysi endi bizning Farg‘onada ham do‘stlarimiz bor. Biz ularga Qashqadaryo haqidagi ma‘lumotlarni kengaytirishga va o‘zimizning Farg‘ona vodiysi haqidagi ma‘lumotlarimizni orttirishga yordam berdik. O‘ylaymanki, ular bizda yaxshi xotiralar qoldirganidek, biz ham ularda yaxshi xotiralar qoldirdik. Bu sayohat, bu do‘stlar, bu maktab hech qachon yodimizdan ko‘tarilmaydi.

***Gulsevar Ne‘matova***

Agentligimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “O‘quvchi almashinish” dasturi orqali Sirdaryo

viloyati Guliston shahri Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabiga sayohat qildik. Biz u yerdagilarni maktabimizdagi turli urf-odatlar, har xil tadbirlar bilan tanishtirdik: u yerda ham “Gulxan atrofida” tadbirini tashkil etdik. Oktabr oyida borganimiz sababli til bayramiga atab tadbir tashkil qildik. Qo‘g‘irchoq teatrini tomosha qildik. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramasini sahnalashtirib berdik. Bundan tashqari, Guliston shahri va butun Sirdaryoning tarixi bilan tanishdik. Uning ko‘plab ajoyib joylariga sayohat qildik. Yangi do‘stlar orttirdik va ular bilan fikr almashdik. Har xil bel-lashuvlarda ular bilan bellashdik. Bu dastur biz uchun yangi do‘stlar orttirish va ular bilan fikr almashish imkonini berdi.

*Abdulkhkim Hamidov*

2023-yilning ikkinchi o‘qish choragida “O‘quvchi almashinish” dasturi bo‘yicha Sirdaryo viloyati Guliston shahrining ijod maktabi – Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga yo‘l oldik. U yerda birinchi o‘qish

kunidayoq yangi do'stlarimiz bilan yaxshi kelishib oldik. Ularning bizga do'stona va mehribon muomalalari bizning yangi maktabga tezroq o'rganib ketishimiz uchun ko'mak bo'la oldi. Dars jarayonlarida o'qituvchilarning darsni olib borish metodikalari, o'quvchilarni qiziqitira olib, fanni chuqur o'rgatish uchun qilayotgan mehnatlari tahsinga sazovor. Oshxona taomlari va yotoqxon sharoitlari bizni qoniqtira oldi, albatta. Bir hafta davomida shahar bo'ylab bir qancha manzillarga: muzey, teatr, kutubxonalarga tashrifimiz tufayli Guliston shahri haqida ham ancha tasavvurlarga ega bo'ldik. Shu bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, she'riy-musiqiy bahslar orqali maktabga mehrimiz ortdi, deb bemalol ayta olamiz. Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga tashrifimiz bizda unutilmas taassurotlar qoldirdi.

*Charos Umarboyeva*

Biz Erkin Vohidov maktabida bo'lar ekanmiz, bu almashinuv dasturi maktablar orasida, o'quvchilar ko'nglidan katta o'rin egallaydi. Erkin

Vohidov ijod maktabidagi radio eshittirish menga juda yoqdi. U yerdagi o‘qituvchi va o‘quvchilarning fe‘l-atvori va muloqoti yaxshi bo‘lgani uchun biz u yerga tez moslashib oldik. Biz Erkin Vohidov nomli maktabga tashrifimiz mobaynida Kaptarli mozor, Uvaysiy uy-muzeyi va boshqa manzilgohlarga bordik. Taassurotlarim juda ajoyib. Agentligimiz bu loyihani yaratgan ekan, biz undan va xodimlaridan xursandmiz.

*Asilbek Ziyodullayev*

Biz Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida “O‘quvchi almashinish” dasturi asosida o‘qir ekanmiz, bu bizda eng yaxshi taassurotlar qoldirdi. Borganimiz zahoti do‘stona munosabatlar ila kutib olishdi. Ilk kunlardayoq maktab o‘quvchilari bilan chiqishib ketdik. Darslar esa anchagina qiziqarli o‘tdi. Biz o‘z metodika va tajribalarimiz bilan, ular o‘zlariniki bilan bo‘lishishdi. Dars o‘tish metodikalarimiz deyarli bir xil bo‘lgani uchun dars jarayonlari va uy vazifalari qiyinchilik tug‘dirmadi. Maktabda uyushtirilgan tadbirlarda ham faol qatnashib,

maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari ko‘nglidan joy oldik. Bundan tashqari, oqshomlari o‘tkazilgan mushoiralarda ham o‘z ijod namunalarimizdan o‘qib, she’riy davralarni qizdirdik. U yerda o‘tgan har lahza maroqli va qiziqarli bo‘ldi. Shunday ekan, ushbu tadbir tashkilotchilariga o‘z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz.

***Javohir Abdurasulov***

Men Ramazonova Dilnura, 2022-yil “Maktablararo o‘quvchi almashinish” dasturi bo‘yicha Xorazm shahrida joylashgan Ogahiy maktabiga sinfdoshlarim bilan birgalikda tashrif buyurdim. U yerga yetib borgan vaqtimizda bizni tarbiyachilar va oshxona xodimlari iliq kutib olishdi. Ular biz uchun o‘zlarining milliy taomlarini tayyorlab berishdi. O‘quvchilarning shevasi biznikidan tubdan farq qilardi. Ba’zi bir darslarda ustozlarning ham shevasiga tushunmay qolgan vaqtlarimiz bo‘ldi. Ammo u yerdagi sinfdoshlarimiz bizga bu borada yordam berishdi. Direktor o‘rinbosari esa har kuni darsdan keyin bizni Xivaning

bir qancha qiziqarli joylariga olib bordi. Men uchun eng esda qolarlisi “Gulxan atrofida” nomli qiziqarli darsturi bo‘ldi. Barchamiz birgalikda kechqurun yig‘ilib, gulxan yoqib, she’rlar aytib, raqs tushdik. Men haligacha o‘sha maktabda o‘tkazgan vaqtlarimni maroq bilan eslayman.

***Dilnura Ramazonova***

Men, Hayitova Farangiz, 2022-yilning aprel oylarida Xiva shahriga “O‘quvchi almashinish” dasturi bo‘yicha borgan edim. U yerdan Oga-hiy nomidagi ijod maktabiga o‘n nafar o‘quvchi va ona tili va adabiyot fani o‘qituvchimiz bilan tashrif buyurdik. Borganimiz bilanoq bizni hurmat bilan kutib olishdi, taomlari va oshxona xodimlari maktabning bir ko‘rki, desam adashmayman. Bir hafta yotoqxonada qolganimizga qaramay, bir umrga yetadigan xotiralar bilan qaytdik. U yerdagilar ancha xushmuomala va hurmatni saqlaydigan insonlar ekan, rahmat. Darslarda ham o‘quvchilar bir-biri bilan ahil va inoq. Hamma sharoit mavjud. Eng quvonarli-

si, bir necha qadam narida joylashgan va atrofi daraxtlarga to‘la shoir Ogahiy muzeyi o‘zgacha orombaxsh edi. Biz bir qancha tarixiy bilimlar va kerakli ma’lumotlarni bilib olgan edik. Xullas, bir hafta vaqtimizni shod o‘tkazdik, bu biz uchun unutilmas bo‘ldi.

***Farangiz Hayitova***



*Adabiy-badiiy nashr*

*Abdulla Oripov*

nomidagi

*Ijod maktabi*

o'quvchilarining ijodidan  
namunalar

Muharrir Said Ashirov

Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov

Musahhihlar: Dono To'ychiyeva, Adolat Mustafoyeva

Kompyuterda sahifalovchi Umida Valijonova

Dizayner Aziz Xudoyberdiyev

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016

Bosishga 2024-yil 12-iyunda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. 5,0 shartli bosma taboq. 4,1 nashr tabog'i.

Adadi 200 nusxa. raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, Faks: (371) 241-82-69